


W  
C

Yzf.2 81.3  
49  
4-96

M.A'lamova, Sh.Ziyamuhamedova

## NUTQDA AKS ETAR BIR OLAM BOYLIK...

*Oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma*



1938.2  
49

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
14-96  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

Ozbek filologiyasi  
fakulteti  
O'QUV ZAL


1938.2  
A-96

NA'lamova,  
Mutqod aks  
etar bir olam  
Boylit...  
shkent 2009

M.A'lamova, Sh.Ziyamuhamedova

NUTQDA AKS ETAR BIR OLAM  
BOYLIK...

Oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent - 2009

Toshkent davlat yuridik instituti O'quv-uslubiy kengashining 11-soni  
2009-yil 18-iyun qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

**M.A'lamova, Sh.Ziyamuhamedova**

Nutqda aks etar bir olam boylik.... Oliy o'quv yurti  
talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. -T.:  
TDYI nashriyoti, 2009. 55 bet.

**Taqrizchilar:**

Filologiya fanlari doktori, prof. Y.Tojiyev;  
Filologiya fanlari nomzodi, dots. S.Usmonov.

Qo'lingizdagagi bu risola XX asr va XXI asr boshlarida o'zbek adabiy  
tilining lug'at boyligi, uning Mustaqillik davridagi ravnaqi, davr voqealariga  
javoban o'sib-o'zgarib, boyib borayotgani haqida ma'lumot beradi. Shu bilan  
birga, mualliflar XX asrning dastlabki yillardan boshlab to oxirigacha  
rivojlanib, dam faolligi susayib davriy o'zgarishda bo'lganiga nazar soladi.  
Lekin risola mavzusidan maqsad til so'z boyligidagi o'zgarishlar, ularning  
sabablarini yoritish emas. Mavzu jamiyatimiz a'zosi bo'lmish har bir shaxs, har  
bir fuqaroning o'z fikri, his-tuyg'ularini ifodalashda, boshqalar bilan  
muloqotda, fikr almashuvda va o'z faoliyatini olib borishda nutqning katta  
ahamiyatga ega ekanligi, nutqni to'g'ri, chiroyli va ixcham tuzish tilni, uning  
imkoniyatlarini yaxshi bilishga bog'liq ekanligi haqida. Haqiqatan ham o'z  
tilimizning butun boyligi nutqimizda namoyon.

Risola huquqshunos talabalarga mo'ljalab yozilagani uchun har bir  
bo'lim oxirida mavzuni mustahkamlash ishlari berildi. Lekin risola ommabop  
bo'lib, til va nutq masalalariga qiziquvchi har bir kitobxonni o'ziga tortadi.

**KIRISH**

"O'ziga boqma, so'ziga boq" – deydi xalqimiz. Darhaqiqat, har  
kimning ichki dunyosi, ma'nnaviy olami,fikr-mulohazasi va bilim saviyasi  
uning nutqida, gap-so'zida namoyon bo'ladi. Biroq so'zlash, nutq  
qobiliyati hammada ham birday emas. Ba'zilar nihoyatda so'zamol, gapga  
chechan bo'ladilar, burro-burro so'zlaydilar. Lekin suhabat so'ngida bu  
suhbatdan oz fikr olganingizni sezasiz. Demak, bu mahmadonalik, ezmalik  
ekan, xolos. Bu xil nutqning qiymati arzon. Boshqa birovlar esa, aksincha,  
o'zlarining ancha qimmatli fikr-mulohazalarini boshqalarga bayon  
qilishda, o'zlar tushungandek qilib tushuntirishda qynaladilar, sababi  
ulardagi so'z boyligi kam bo'lgani uchun til imkoniyati va vositalaridan  
yetarlicha foydalana olmaydilar. Bu xil kishilarning nima demoqchiliginini,  
odatda, qo'shimcha savol-javob bilan bilib olish mumkin. Yana  
boshqalarda esa fikrni erkin, qynalmay bayon qilish qobiliyati yetarli,  
nutq maromida bo'ladi-yu, lekin bu nutq so'niq, ruhsiz bo'ladi,  
boshqalarni jalb qilmaydi, qiziqtirmaydi. Aksariyat bunday kishilarda  
notiqlik mahorati, nutq madaniyati yetishmaydi. Odamlarga ta'sir  
qiladigan, ularda fikr uyg'otadigan, ravon, chiroyli nutqqa qanday erishish  
mumkin ?

## NOTIQLIK -- SAN'AT

Bu – isbot talab qilmaydigan, bahsga o‘rin qoldirmaydigan haqiqat. Qadimgi Rim va Gretsiyada, keyinchalik Rossiyada ham, notiqlik san’atiga (ritorikaga) jiddiy e’tibor berilgan, u fan turi sifatida maxsus o‘rganilgan. Notiq nutqini qanday tuzishi, tinglovchilarни jalb qilish uchun nimalarga e’tibor berishi, tovushdan, qo‘l va yuz harakatlaridan qanday foydalanish lozimligi kabi masalalar ritorikaning tarkibiy qismari hisoblangan. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel (eramizgacha 384-322 - yillar) “Nutqning bosh fazilati aniq va ravshanlikdir”, - degan edi. Qadimgi Gretsiya va Rimda nutqning ixchamligi, fikrning lo‘nda ifodalanishiga alohida e’tibor berilgan. Mark Fabiy Kvintilian (eramizgacha 95-35 - yillar) qadimgi grek madaniyati markazlari - Kichik Osiyo, Attika (Afina va uning atroflari) va Rodos orolida yashovchi xalqlarning so‘zlashuvi bir-biridan o‘ziga xos ajralib turishini qayd etgan edi: osiyoliklarga ko‘p so‘zlilik, dabdabali, tantanavor nutq uslubi xos, attikaliklarning nutqi “qisqa, sof, kuchli”, rodosliklarga esa “bir oz bosiq, salmoqli bo‘lsa ham, mazmundan xoli bo‘lmagan” nutq xosdir.

Kvintilian notiqlik ko‘zlanayotgan maqsadga ko‘ra uch turga bo‘linishini, ya’ni nutq - “ishni bayon qilish uchun”, “tinglovchilarда minnatdorlik, mammunlik uyg‘otish uchun”, “ehtiroslarni qo‘zg‘ash uchun” so‘zlanishini qayd etgan edi. Nutqning bu uchala xili haqida uning o‘zi shunday deydi: “Ishni, muddaoni bayon qilish uchun o‘tkirlik va aniqlik; qoniqish, mammunlik hislarini paydo qilish uchun muloyimlik; ehtiroslarni tug‘yon urdirish uchun esa kuch kerak”. Demak, uning fikricha, birinchi nutq uchun bayon va tavsifda o‘rinli dalillashning o‘zi yetarli, ikkinchi tur nutq metaforalar bilan to‘ldirilgan, majozlar bilan bezatilgan, ko‘rkam ifodalar, fikrning nozikligi bilan maftunkor bo‘lishi kerak, u ikki qirg‘og‘i yam-yashil o‘rmonlar bilan qoplangan daryoning tiniq suvidek sokin oqishi lozim. Uchinchi xil nutq esa shiddatkor, to‘lqinlar beixtiyoriy taassurotlarni paydo qilishi, u o‘zi bilan xarsang toshlarni surib ketuvchi, har qanday to‘siq va ko‘priklarni olib ketuvchi tezkor oqimdek aqlarni o‘z izmiga solishi kerak.

Sitseronning “Notiq haqida” nomli asarida shunday fikrlar bayon qilingan: ”So‘zga usta deb yig‘inlarda, grajdalar protsesslarida tinglovchini ishontiradigan, unga huzur bag‘ishlaydigan, uni o‘z ixtiyoriga bo‘ysundiradigan kimsani aytildi. Ishonch, e’tirof zaruriyatdan tug‘iladi. Huzurlanish, zavqlanish nutqning yoqimliligiga bog‘liq, g‘alaba esa

tinglovchining bo‘ysunishidadir. Notiq oldida qancha vazifa bo‘lsa, so‘zga chechanlikning ham shuncha yo‘li bor”.

Qadimgi Gretsianing buyuk notiq ‘i Demosfenning: “Samarasiz so‘z bema‘ni va quruqdir”, degan so‘zлari ko‘p qiyinchiliklarni yengib o‘tgan. Ovozining jarangdor chiqishi uchun dengiz to‘lqinlari bilan basma-bas mashq qilgan, nutqini o‘stirish bo‘yicha tinmay shug‘ullangan. Maxsus notiqlar maktabini tugatgan Demosfenning ko‘pchilik oldida so‘zlagan birinchi nutqi muvaffaqiyatsiz chiqqan. Biroq Demosfen tushkunlikka tushmay, yana va yana mashq qilavergan. Bora-bora u odamlarga o‘z fikrini yetkazishdagi mushkulliklarni, o‘zidagi kamchiliklarni yo‘qota borgan, izlanishi, irodasi o‘laroq mashhur notiq bo‘lib yetishgan.

Hozirgi kunda usta notiq bo‘lib yetishish, auditoriyaning diqqat-e’tiborini qaratish, kishilarni qiziqtirish, ular ongiga ta’sir ko‘rsatishning xilma-xil vosita va usullari bor: yuz va qo‘l harakatlari (mimika va pantomima, jestikulatsya), turli ekran va sahna vositalari, ko‘rgazma qurollari, suratlar, texnik vositalar, qolaversa, oddiy doska yordamga keladi, mikrofon uning tovushini baralla eshittiradi. Nutqni obrazli (ifodali) o‘qish, ovozni boshqarish ham notiqlikning muhim elementi hisoblanadi. Lekin nutqning ta’sirchanligi, odamlar ruhiyatiga ta’sir qilishi birinchi navbatda notiqning til boyligidan foydalanish mahoratiga, nutqining ko‘rkamligiga bog‘liq. Chunki nutq – tovushlardan, so‘zlardan, gaplardan – til vositalardan tashkil topadi. Tilning bebahoh, ulkan so‘z boyligini, behisob va rang-barang ifoda vositalarini yaxshi bilish, ulardan topqirlik, o‘tkirlik bilan foydalanish bilangina nutqni san’at darajasiga yetkazish mumkin. So‘zdan, tilning boshqa ifoda imkoniyatlaridan xoh og‘zaki, xoh yozma shaklda bo‘lsin, mahorat bilan yaratilgan nutq hamma vaqt kishilar ongiga ham, yuragiga ham borib yetaveradi. Fikrimizga dalil sifatida notiqlik mahorati, nutqda tilning(so‘zning) ahamiyati haqida donishmandlar bildirgan qimmatli fikrlardan misollar ko‘rsatib o‘tishni o‘rinli deb bildik.

V.G.Belinskiy: “Kishi nimaniki his etsa va tushunsa, albatta, uni ifodalab beradi. O‘zлari yaxshi tushunmaydigan narsa to‘g‘risida gapiradigan kishilardagina so‘z kamlik qilib qoladi. Kishi tafakkurga ega bo‘lsa, aniq-ravshan aytaladi”.

I.V.Gyote: “So‘zni ishonz bilan gapir, eshituvchilarga ta’sir etish esa o‘z-o‘zidan kelib chiqadi”.

Klavdiy: “Bilgan narsangni hamisha aytib yurma, ammo nima demoqchi bo‘lganiningni hamisha bilib yur”.

Sitseron: “Inson shoir bo‘lib tug‘ilishi mumkin, lekin notiq bo‘lib yetishadi”.

Katon: “Mavzuni chuqur o‘rgan, so‘zning o‘zi keladi”.

Abu Ali ibn Sino: “Inson notiqligi, saodat tildan,

Nazokat tildandir, nafosat tildan.

Hayot saboqlari ko‘rsatar shuni,

Do‘zax tildan erur va jannat tildan”.

Kaykovus: “Shunday so‘zlagillki, bu so‘z bekor va zoye ketmasin”;

“So‘z eshitishdan ochma, kishi so‘zni eshitish bilan notiq bo‘ladi”.

#### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nutq qanday ehtiyojlarni qondirish uchun kerak?  
2. Osiyoda, Attikada va Rodos orolida yashovchilarining nutqlari bir-biridan farq qilsa, bu shu nutq egalarining qaysi xislatlaridan dalolat beradi?

3. Qadimgi Rim va Gretsiyada notiqlik san’ati qanday rivojlangan?

4. Qadimgi Rim va Gretsiyadagi mashhur notiqlar haqida so‘zlab bering.

5. Notiqlik va so‘zning ahamiyati haqida yana qaysi donishmandlarning fikrlarini bilasiz?

6. Alisher Navoiyning mana bu hikmatli iboralarini sharhlang:

“Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”;

“So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,

Ko‘rma, kim der oni; ko‘rgil, kim ne der”.

7. O‘zingiz so‘z va nutq haqida qanday maqol va matallarni bilasiz?

## **NUTQ, UNING SHAKL VA TURLARI**

“Nutq” so‘zining ma’nosi A.Hojiyevning<sup>1</sup> kitobida shunday izohlanadi: 1) so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni, 2) shu jarayon natijasida yuzaga chiqadigan hodisa.

Nutq monolog va dialog tarzida mayjud bo‘ladi. Monologik nutq – bir kishining nutqi, dialog esa bir necha kishining suhbat tarzidagi nutqi. Monolog batafsilligi, so‘zlar va til vositalarini tanlab ishlash uchun o‘ylab olish imkoniyati borligi, gaplarning to‘liq va murakkab shakllari bilan dialogdan farq qiladi. Dialogda esa, aksincha, mavzu suhbatdoshlarga ma‘lum bo‘lgani uchun gaplar luqma yoki to‘liqsiz gap shaklida, ortiqcha tafsilotlardan xoli bo‘ladi.

Nutqning yozma va og‘zaki shakllari ham bor. Yozma nutq ko‘pincha monologik xarakterda bo‘lib, batafsilligi, mulohaza-mushohadaga keng o‘rin berilganligi, nutq madaniyati me’yorlariga rioya qilishi bilan ajralib turadi (badiiy adabiyotdagi ayrim individual nutq namunalaridan tashqari). Vaqtli matbuot, ilmiy-metodik adabiyot (darsliklar, qo‘llanmalar, monografiyalar, maqolalar), badiiy adabiyot, rasmiy yozishmalar, hujjatlar, xususiy yozishmalar (xatlar) yozma nutqning ko‘rinishlaridir. Adabiy til me’yorlariga rioya qilish, til boyligidan keng va ijodiy foydalanish yozma nutqqa xos. Hatto xatlarda ham savodli va chiroysi yozishga, nutq ko‘rkamligiga e’tibor beriladi. Xatlar har xil bo‘ladi. Hayotda ko‘proq kundalik turmushdan xabar berib yozilgan xatlar uchraydi. Misol uchun:

*Jo‘raka! Salom!*

*O‘qishingizga muvaffaqiyat tilayman. Imtihondan qanday o‘tganingiz, darslariningzning borishi, sog‘lig‘ingiz to‘g‘risida bilishga qiziqaman. Sizga bir yangi xabar: pedtexnikunning biringchi kursiga imtihon berib kirdim. Darslarim juda qiyin bo‘lishiga qaramasdan (o‘zimni maqtaganday bo‘lmashin), ko‘pchilik fanlardan “a’lo” olib o‘qimoqdaman.*

*Tunov kuni sizdan xat-xabar bormikin, bir bilib kelay deb xolamlarning oldilariga kirgan edim, o‘g‘lingiz Yodgor do‘mboqqina bo‘lib o‘ynab yurgan ekan, juda ham sevimli bo‘pti-da. Ko‘tarib, bag‘rimga bosib, ancha o‘ynatib yurdim. Agar qimmatli vaqtinigizni ayamasangiz, bir enlikkina xat yozsangiz, boshim osmonga yetar edi.*

*Sizga hurmat bilan Saodat*

*(G‘.G‘ulom, “Yodgor” )*

<sup>1</sup> «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati» –T.: O‘qituvchi, 1985, 61-bet.

Radio va televide niye orqali beriladigan eshittirishlar va ko'rsatuvlar, turli ma'ruzalar, suhbatlar, sahnada aktyorlar nutqi, oily va o'rta maktablarda olib boriladigan darslar va oddiy, jonli so'zlashuv og'zaki nutqning ko'rinishlaridir. Og'zaki nutqda so'zlar va tovushlarning talaffuzi, urg'u, pauza, ovoz imkoniyatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Nutqning mazmun xarakteri va qo'llanish doirasi, uslubiga ko'ra bir necha turlari bor: ilmiy nutq, rasmiy yozishma va hujjatlar nutqi, ommabop nutq, badiiy nutq va so'zlashuv nutqi. Nutqning har bir turi ijtimoiy hayotning turli tomonlariga tegishli bo'lib, har qaysisi maqsadi va sharoit talabiga ko'ra tilning ifoda vositalaridan o'ziga xos foydalanadi.

### **Ilmiy nutq**

Ilmiy nutq fan sohasiga doir masalalarning mohiyatini bayon qilish, aniq va ravshan ta'riflar berish, mantiqan yaxlit, ishonarli xulosalarni ifodalash uchun qo'llanadi. Ilmiy nutq mantiqan kuchli, asoslangan, mushohada va dalillarga boy bo'lib, tuzilishi jihatdan bir butunlikni tashkil qiladi: avval o'rganilayotgan, tekshirilayotgan masalaning qo'yilishi asoslab beriladi, keyin u dalillar, isbotlar, o'tkazilgan tajribalar asosida har taraflama izohlana boradi, yo'l-yo'lakay muallif tegishli o'rnlarda boshqa mualliflarning fikrini keltiradi va ularga o'z munosabatini bildirib boradi. Ishning oxirida bayon qilingan kuzatishlar va ilmiy mulohazalar yakunlanadi.

Til jihatidan ilmiy-nazariy nutq ixcham shaklga katta mazmunning jo bo'lishi uchun tanlanadi. Ilmiy nutqda fanning u yoki bu sohasiga doir terminlar ko'p qo'llanadi. Nutq adabiy til me'yorlariga asoslangan bo'lib, murakkab tuzilgan gaplar, yoyiq birikmali gap bo'laklari qo'llanadi.

Ilmiy nutq turli ilmiy ma'ruzalar, axborotlar, monografik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va bir oz soddarroq, ommaboproq tarzda darsliklarda aks etadi. Masalan, o'rta umumiy ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilariga uchun "Algebra" darsligidan shunday matnni ko'rib chiqaylik:

### **Birhad va ko'phadni birhadga bo'lish**

Bir nechta ko'phad va birhadlarni qo'shish va ayirish, ko'paytirish va natural ko'rsatkichli darajaga ko'tarish natijasida yana ko'phad hosil bo'lishi oldingi paragraflarda ko'rsatildi. Sanab o'tilgan bu amallar ichida bo'lish amali uchramadi. Bo'lish amalini o'z ichiga olgan ifodalar V bobda batafsil qaraladi. Ba'zan bo'lish natijasida ham ko'phad hosil bo'ladi.

Birhadni birhadga bo'lish natijasini ko'paytirish bilan tekshirish mumkin: bo'linuvchi bo'lishi kerak.

Ko'phadni birhadga bo'lish uchun ko'phadning har bir hadini shu birhadga bo'lish va hosil bo'lgan natijalarni qo'shish kerak.<sup>1</sup>

Mana bu matnni esa kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan "Analitik kimyo" darsligidan diqqatingizga havola etamiz. Yuqoridagi algebra faniga xos darslik nutqi ixcham va aniq yozilgani, fikrni asoslashi va, ayni paytda, nisbatan sodda yozilgani bilan ajralib turadi. Bu galgi matnda esa jiddiy ilmiy uslub, ilmni amaliyat bilan bog'lash va bayon tarzida fikrni ifodalash sezilib turadi. Ikkala matnning ilmiy tomoni hozirgi kun fan taraqqiyoti bosqichidan kelib chiqqan holdami, soha atamalariga boy:

"Uchinchi gruppakationlarining o'rta turlari: xloridlar, nitratlar, atsetatlar va fosfatlar suvda erimaydi, lekin kislotalarda eriydi. Aluminiy, xrom va temir (III) atsetatlarning eritmalarini qizdirilganda gidrolizlanadi; bunda tuzlarning cho'kmasi hosil bo'ladi.

Uchinchi gruppakationlarining ko'pchiligi rangliligi bilan birinchi va ikkinchi gruppakationlaridan farq qiladi. Uchinchi gruppakationlarini cho'ktiruvchi gruppakationlarning reagenti ammiak eritmasi ishtirokida ammoniy sulfid ( $(NH_4)_2S$ ) dir. Bu kationlarning sulfidlari birinchi va ikkinchi kationlardan farq qilib, suvda erimaydi, lekin suyultirilgan kuchli kislotalarda eriydi."<sup>2</sup>

Ko'rinadiki, ilmiy-nazariy nutq qoidalar, ta'riflar, masalaning mohiyati, bayoni, jismning belgi-xususiyatlarini quruq qayd qilishdan iborat bo'lib, unda his-tuyg'ular, obrazlilik ifodalananmaydi. Bunday nutq mo'ljallangan auditoriya ham, o'quvchilar ham ilm ahli bo'lgani uchun har qanday ortiqcha tafsilot keraksiz bo'lib qoladi.

Ilmiy nutqning boshqa bir ko'rinishi – ilmiy-ommabop nutq keng omma uchun mo'ljallanadi va shuni nazarda tutib hamma uchun tushunarli, sodda umumuxalq tilida yoziladi va o'qiladi, atamalar cheklangan bo'ladi, tasviriylik, ta'sirchanlikka e'tibor beriladi. Agar ilmiy-nazariy nutq adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilsa, ilmiy-ommabop nutqda so'zlashuvga xos til vositalari ham qatnashishi mumkin. Masalan: "Modomiki, farzandning irsiyati ota-onanikidan o'zgacha bo'lmash ekan, mijoz ham ulardan farq qilmaydi, faqat turli darajada omuxta bo'ladi: kimgadir otadan, kimgadir onadan ko'proq o'tadi yoki ikkovidan barobar meros qoladi. Natijada, bir odam ikkita mijozli bo'lishi mumkin; masalan,

<sup>1</sup> Sh.Alimov, O.Xolmuhamedov, M.Mirzaahmedov. Algebra. Umumiy ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik; -T.: O'qituvchi, 2005, 90-91 - betlar.

<sup>2</sup> M.Mirkomilova. Analitik kimyo. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga uchun. - T.: O'zbekiston, 2005.

*yarim xafaqon va yarin serjahl yoki yarim xafaqon va yarim sovuqqon va hokazo. Bir necha avloddan so'ng bir odamda to'rtala mijozning xislatlari mujassam bo'lishi mumkin, baribir qaysidir bir mijoz ustunlik qilib turadi. Eru xotin bir xil mijozli bo'limgani ma'qul, chunki mijozning salbiy tomoni farzandda zo'rayib ketadi: o'ta xafaqon, o'ta serjahl, o'ta yengiltak, o'ta beg'am va temsila tebranmas bo'lishi mumkin".*

(Qudrat Do'stmuhammad. Mijoz va taqdir; ilmiy-ommabop risola).

### Rasmiy xabarlar, yozishma va hujjatlar nutqi

Nutqning bu turi asosan yozma shaklda mavjud bo'lib, adabiy tilning qonun-qoidalariga qat'iy rioya qiladi. Turli farmonlar, buyruqlar, rasmiy xabarlar, hujjatlar, kodekslar, sud yozishmalari, majlislarning qarorlari, ko'rsatmalar, arizalar va ma'lumotnomalar rasmiy nutqning ko'rinishlaridir. Rasmiy nutq nihoyatda aniq-ravshan bo'lishi, nutqni bezovchi vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'lishi talab qilinadi. Chunki emotSIONallik, ta'sirchanlik (ekspressivlik) vositalari rasmiy nutqni ko'zlangan maqsadga muvofiq tushunishni qiyinlashtiradi, diqqatni chalg'itadi. Kompozitsion jihatdan rasmiy nutq sharoitning bayonidan boshlanib, unga bog'liq holda voqeani yoki maqsadni bayon qilish bilan tugaydi. Oxirida rasmiy xabar, hujjat yoki ko'rsatma... uning muallifi, yozilgan sanasi ko'rsatiladi (tegishli hujjatlarda imzo ham qo'yilib, muhr bilan tasdiqlanadi).

Rasmiy nutqning ko'rinishlari ham o'zaro bir-biridan bir oz farqlanadi. Rasmiy xabarlarda faqat voqealarning bayoni beriladi va ijrochi shaxslar nom-banom sanaladi.

Rasmiy nutqning boshqa bir ko'rinishi rasmiy yozishmalar – so'rovga, talabnomaga – javob, hisobot, ma'lumotlar bo'lib, ularda talab qilinayotgan, so'ralayotgan masalalar, o'tkazilgan tekshirish natijalarini bo'yicha ma'lumot beriladi, o'rni bilan ayrim chekinishlar, tafsilotlar berilishi mumkin. Masalan:

Mustaqillik davrida o'zbek xalqining, shu jumladan, respublikamiz boshqa millat fuqarolarining ham savodliliginini oshirish, demokratik munosabatlar, fuqarolar erkinligini kengaytirish va mustahkamlash bo'yicha bir qator tadbirdar o'tkazilmoqda, har xil ish turlari qo'llanmoqda. Shuardan biri yuridik maslahatni faollashtirish bo'lib, u odatda fuqaroning matbuot sahifalarida va televideniye ekrani, radioeshittirish kanallari orqali savol hamda unga javob tarzida olib boriladi. Masalan:"Savol: Sog'lig'imga yetkazilgan zararni to'layotgan yuridik shaxs bankrot deb

e'lon qilinib, tugatildi. Endi menga zararning qolgan qismi qoplanmaydimi?

B.G'oziyev, Qashqadaryo viloyati.

Javob: Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, tegishli to'lovlar jabrlanuvchiga to'lash uchun kapitallashtiriladi, ya'ni belgilangan tartibda oldindan jamlantiriladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki yoki yetarli emasligi sababli buning iloji bo'limgan hollarda, belgilangan summalar jabrlanuvchiga davlat tomonidan belgilangan tartibda to'lanadi (FKning 1015-moddasi).

Zararning endilikda to'lanishi masalasida siz ijtimoiy ta'minot va moliya idorasiga murojaat etishingiz lozim".

("Shifo-info", 1-7 -may, 2008-yil).

Bu xil nutqda savol beruvchining ismi-familiyasi to'la yoki ramziy ko'rsatiladi, javob tayyorlovchi ham matn so'ngida to'liq ismi-familiyasi, lavozimi bilan bildiriladi.

Buyruq va farmonlar, qonunlar, farmoyishlar va qarorlar ham rasmiy nutqning ko'rinishi hisoblanadi.

Rasmiy yozishmalar hujjatlarga xos nutqning til xususiyatlaridan ularda ruscha, internatsional so'zlar va turg'un so'z birikmalari («shtamplar») tez-tez uchrab turishini, gapda so'zlarning tartiblanishi, oborotlar, gaplarning, matnlarning tuzilishida rus tili qonun-qoidalarining ta'siri yaqqol sezilib turishini ko'rsatish lozim. Ayniqsa, ariza, ma'lumotnomalar, bildirishnomalar, ishonch qog'oz, tavsifnomalar kabi rasmiy ish qog'ozlarining yozilishi uslubida bu ta'sir ravshan namoyon bo'ladi. Rus tili va o'zbek tilining sintaktik qurilishi, shunga xos qonun-qoidalarini boshqa-boshqa bo'lgani sababli, rus tilida silliq, ravon yozilgan ariza yoki ma'lumotnomalarining o'zbek tiliga avtomatik tarzda nusxasi ko'chirilganda, o'zbek tilining qonun-qoidalariga, adabiy til me'yorlariga zid tarzda yozilgan ish qog'ozlari paydo bo'ladi. Masalan, oddiy ma'lumotnomaning yozilishini olaylik:

Rus tilida:

Справка

Дана настоящая справка Расулову Шавкату Усмановичу о том, что он действительно проживает в настоящее время по адресу: ул. 3.Сауда, д.№86 и имеет в семье 4-х детей.

Imzo

O'zbek tilida:

Ma'lumotnomma

*Berildi ushbu ma'lumotnomma Rasulov Shavkat Usmonovichga shul haqdakim, u haqiqatan ham hozirgi kunda Z.Said ko'chasi uy 86 da istiqomat qiladi va oilasida 4 nafar bolasi bor.*

*Imzo*

Holbuki, o'zbek tilining gap tuzish me'yorlariga ko'ra bu hujjat shunday yozilishi kerak edi:

Ma'lumotnomma

*Bu ma'lumotnomma Rasulov Shavkat Usmonovichga uning haqiqatan ham hozir Z.Said ko'chasi 86-uyda yashashi va oilasida 4 farzandi borligini tasdiqlab berildi.*

*Imzo*

O'zbek tilining qonun-qoidalarini buzib, unga hummatsizlik va beparvolik bilan yozilayotgan yuqorida kabi ma'lumotnomalar, arizalar, qarorlar va boshqa yozishmalar nutq madaniyatidan bexabarlikning oqibatidir. Bu xil yozishmalarda ham fikrning ravshan va tushunarli ifodalanishi uchun ularni to'g'ri yozishga amal qilish kerak.

**Ommabop nutq**

Ommabop nutq ma'lum davrga xos siyosiy-ijtimoiy voqeahodisalarga munosabatni, dunyoqarashni ifodalaydi. So'zlovchi yoki yozuvchi (publitsist) davrning dolzarb masalalari bo'yicha o'z qarashlarini, fikrlarini ifodalar ekan, boshqalarni ham shunga ishonishga, o'z fikriga qo'shilishga undaydi, da'vat qiladi. Shuning uchun ommabop nutqda chuqur falsafiy mushohada o'tkir zakovat va baquvvat mantiq bilan uyg'unlashib ketadi, yuksak pafos, rang-barang his-tuyg'ular butun nutqqa katta ta'sirchanlik baxsh etadi. Qadimgi grek notiqlari nazarda tutgan yuqori uslubdagi notiqlik, odamlarga bo'ron, daraxtlarni qo'porib, uchirib olib ketganidek kuchli ta'sir qiladigan, ularni yuksak ideallar va maqsadlar sari yo'naltiradigan nutq mana shu ommabop nutqdir. Bu nutq bir yoki sanoqli bir necha shaxsga emas, jamoatchilikka, publikaga qaratiladi. Ommabop nutqda emotsiyonallik va ekspressivlikning boy ohangdorligi, gap bo'laklarning takrori, matnni tuzishda gaplarni savol-javob tarzida

joylashtirish, sinonimika kabi nutq tuzish vositalaridan o'tkirlik bilan foydalaniladi, mantiq, fikrlarni asoslash kuchli bo'ladi. Ommabop nutqning ham turli ko'rinishlari bor: rasmiy-ommabop, siyosiy-ijtimoiy-ommabop, ilmiy-ommabop va badiiy-ommabop kabi. Rasmiy yozishmalar, ishqog'ozlar bilan birga ommabop nutqning barcha ko'rinishlari yagona adabiy til qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishi, aniq va ravshanlik, gap tuzilmalarida ham bosh bo'laklarning o'z joyida turishiga e'tibor berish (inversiya, takror, tugallanmagan gap andozalaridan qochish), qaydlov kabi xususiyatlardan ko'rinishlari ajralib turuvchi xususiyatlarga ega: siyosiy-ijtimoiy nutq zamoning, davrning eng dolzarb, muhim va yechimi ommaning, xalqning kundalik va ertangi hayoti bilan bog'lanadigan muammolarini o'quvchi e'tiboriga havola qiladi hamda shu qo'yilayotgan masalani yoritishda muallif nuqtai nazarini, uning ommaga murojaatini, uni ishontirgan holda shu masalani birga yechishga da'vatini ifodalaydi. Hozirgi matbuotimiz sahifalarida bunday nutq namunalari ko'plab uchraydi, shulardan ikkita misol keltiramiz. Ularning ikkovida ham o'z yurti, yurt ahli manfaatlari uchun qayg'urish namoyon:

*Daromad va baraka manbai*

*...Endi aholining daromadi va bandligiga kelsak, Qarorning bu boradagi ahamiyatini ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari bilan bog'lash o'rinni bo'lur edi. Ko'p vaqtarda o'zbek oilasida bitta sersut sog'in sigir bir oilani boqqan. Ikkita sog'in sigiri bo'lsa, boy oila hisoblangan. Bo'rdoqiboqarlarning esa hamisha oshig'i olchi bo'lgan. Qo'y-baraka, o'nta qo'yingiz bo'lsa, bir yilga bormay, yigirmatadan oshadi. Xullas, chorvaning turgan-bitgani – daromad. Oila uchun halol rizq. Yaylovida o'tlatish, yem-hashak jamg'arish, chorva mollarini parvarish qilish, so'ng qatig'ini sotish – hammasi oila a'zolarining bandligini ta'minlaydigan imkoniyat. Mamlakatimizda bunday imkoniyatlardan ishning ko'zini bilib, oqilona foydalanayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklar ko'p.*

*...Shu ozod va obod yurtning bir fuqarosi sifatida menga hamisha bir narsa tinchlik bermaydi. Biz bugungi yoshlarni to'g'ri tarbiyalash bilan birga, ularga doim to'g'ri gapirib, to'g'ri ma'lumot berishni ham unutmaylik. Masalan: bugun bozorlarimiz go'sht-sut mahsulotlariga*

*to'lib-toshgan bir paytda yoshlarimiz bir haqiqatni bilib qo'yishlarini istardik. Ya'ni, sobiq Ittifoq davrida chorvachilik hamisha qoloq, faqat zarar keltiruvchi tarmoq bo'lib kelgan. Oltmishinch'i, yetmishinch'i va saksoninch'i yillarni, savdo do'konlarida go'sht yetishmay, Afrikadan keltirilgan go'sht sotilganini eslaylik. Bugungi manzara o'sha ayanchli ahvolning aksi. Bunga shukur qilishimiz, shukronani yoshlarimizga ham uqtirishimiz shart.*

Ibrohim Normatov, "Mohiyat" gaz. 2-may 2008-y.

### *Istiqlol mas'ulligi*

*O'z avlodiga, surriyotiga e'tibor tuyg'usi tabiatga ham, jamiyatga ham xosdir. Odatda, tabiat bu missiyani instinkt, irlisyat talabiga muvofiq bajaradi. Ya'ni, qush tuxumdan bola ochadi va polaponiga yashash uchun zarur jamiki ko'nikmalarni o'rgatadi. "Qush inida ko'rganini qiladi", - degan naql ham shundan qolgan bo'lsa, ajab emas.*

*Jamoa bo'lib uyushgan inson bolalari esa o'zi kabi insonni tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Odamzod ham - tabiatning bir bo'lagi sifatida - irlisyatga qanchalik tobe bo'lmasin, mustaqil tafakkur bilan ish ko'rgani bois, yangi avlodni o'ziga mos keladigan dunyoqarash asosida tarbiyalaydi. Shu ma'noda kakku bolasidan burgut chiqmasligi aniq, lekin inson o'z surriyotiga o'zi xohlagandek, orzu-niyat qilganidek ta'limtarbiya berish imkoniyati va salohiyatiga ega.*

*Shu maqsadda yoshlarimizga har tomonlama e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishdek ezgu niyat ijobati uchun barcha imkoniyatlar ishga solindi. Yangi-yangi litseylar, kollejlar barpo etilib, ularning zamonaviy binolari zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Yoshlarimizning iqtidori, intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni jismoniy chiniqtirish maqsadida ko'plab madaniyat va san'at koshonalarini, sport inshootlari bунyod etildi.*

*Hozir ana shu xayrli sa'y-harakatlar allaqachon o'z mevasini bermoqda. Davrning necha yuz minglab kadrlari barcha joylarda va jabhalarda el-yurtimizning ishonchi va tayanchiga aylanib bormoqda.*

*Bu yilning yurtimizda "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi, "Yoshlar yili Davlat dasturi"ning qabul qilinishi va izchil amalga oshirilayotgani zamirida ham ezgu niyat-u oljanob maqsadlar mujassam.*

*Inshoollo, yosh avlod bu ulug' ishonch va buyuk da'vatni chin yurakdan his etgay.*

Abdulla Oripov."Vatanparvar" gaz. 2-may 2008-y.

Keltirilgan bu parchalarda hayotning o'zi qo'yayotgan muhim-siyosiy ijtimoiy masalalarga muallifning faol fuqarolik munosabati, ularni talqin qilishi aks etgan. Umumxalq tilining keng va boy imkoniyatlaridan mohirona foydalanish ikkala nutqning samimiyligi, estetik ta'sirchanligini ta'minlagan. Mustaqil respublikalik davrimiz boshlanganiga ham 18 yil to'lyapti. Hozir O'zbekiston iqtisodiyotini yangi asosda qurayotgan, jahondagi rivojlanayotgan hamda taraqqiyot yo'lidan borayotgan davlatlar qatorida o'z o'rnini egallab kelayotgan respublikadir. Keltirilgan ikki nutqiy parchaning birinchisi yurtimizda chorvadorlikni rivojlantirish, odamlarni ish bilan ta'minlash, xo'jalik yuritish va daromad olishga o'rgatish, yaxshi daromad to'q va farovon turmush omili ekanligi kabi sotsial-ijtimoiy masalalar respublika hukumatining to'g'ri siyosati bilan to'g'ri hal qilinayotganini shu respublikaning fuqarosi sifatida kuyunchaklik bilan ifodalaydi, nutq samimiy va fuqarolik burchini his qilish yaqqol seziladi. Ikkinci nutq atoqli shoirga tegishli bo'lib, unda ham O'zbekiston Respublikasining yuksak fuqarolik burchini his qilish yaqqol namoyon. Shoир 2008-yilning "Yoshlar yili" deb e'lon qilingani munosabati bilan Respublika hukumatining yosh avlodga ta'lim sohasida ham, hunar egallah borasida ham, ma'naviy-axloqiy jihaddan yetuk, jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib yetishishlari uchun sharoitni to'lato'kis yaratishga qancha e'tibor berayotgani, yirik mablag'lar ajratayotgani haqida faxr bilan, sevinch va qoniqish bilan so'zlaydi. Avvalgi nutqda xo'jalik yuritishga xos daromad, baraka, rizq, yem-xashak, xo'jalik, zarar, foya kabi so'zlar xos bo'lsa, keyingi nutqda kelgan "Qush inida ko'rganini qiladi", "Kakku bolasidan burgut chiqmasligi aniq" kabi naqlar, iqtidor, intellektual salohiyat, surriyot, polapon kabi so'zlar, ezgu niyat ijobati, o'z mevasini bermoqda kabi ifodalalar nutqning ziysi odamga tegishlilagini ko'rsatib turibdi; umuman, fikrlarning bayoni, bir-biriga ularishda badiiylik, jamiyat hodisalarini tabiat manzaralari asosida tasvirlash, undan ilhom olish, ijtimoiy muhim masala shoirona tahlil qilinganini anglaysiz.

Siyosiy-ijtimoiy nutq siyosat sohasiga doir salobatlari tushunchalarning zalvorli alomatlari, fikrnинг kuchliligi, aniq va qat'iyligi, qiyoslash, kengaytirib, izohlab ifodalash vositalaridan iloji boricha chetlanish bilan ajralib turadi. Unda ommabop nutqning muhim belgisi: targ'ib va tashviq qilish, ishontirish bo'rtib turadi: "Siyosat" - yunoncha "polis", "politikos" so'zlarining tarjimasi bo'lib, "davlatni boshqarish san'ati" degan ma'noni anglatadi. U jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, diniy va boshqa munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi bir maydon. Ijtimoiy ong

shakllaridan biri sifatida siyosat (zamon va makonda barqaror) davlat boshqaruvi vositasi vazifasini o'tab keladi. Bu maydonda turli siyosiy kuchlar yetakchilik uchun bellashadilar. Siyosiy partiyalar xuddi mana shunday siyosiy kuchlardir.

*Jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan barcha tadbirlar ozod va obod yurt, kelajagi buyuk davlat, oxir-oqibat qonunlar ustuvor bo'lgan kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilganini, ya'ni hur va erkin insonni kamol toptirish bosh vazifa ekanini anglatishdan iborat.*

Arslon Eshmurodov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati. "Sado" jurnali, №38, 2007.

Ommabop nutqning murojaatnomasi, chaqiriq kabi ko'rinishlari odamlarga ta'sir qilish, ularni harakatga undashni ko'zda tutadi va da'vatkor ruhda yoziladi.

"Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi" I.A.Karimov.

"Tabiatni asraylik – insoniyatni asragan bo'lamiz".

"Balli, yigilar – Vatanimizning posbonlari!"

Bunday chaqiriq va murojaatnomalarda ko'pincha nutq qaratilgan shaxs yoki shaxslarni ifodalovchi undalma(lar) bo'ladi, keyin nutqning mazmuni bayon qilinadi. Undalma ifodalanmagan gapda chaqiriq, da'vat boshqa shaxslarga, ommaga qaratilgani mazmundan anglashiladi. Gaplarning kesimlari mazmunga mos ravishda buyruq-istik maylining tegishli shakllarida keladi, og'zaki ko'rinishida ular tantanali, kuchli ohangda aytildi.

Ega ta'sirchan so'zlar va xitoblardan iborat bo'ladi. Lekin to'liq ma'lumotlar berish mazmunidagi – reklamalar ham bor. Ular, ayniqsa, dori-darmonlarni yoki biron texnik yangilikni targ'ib etish uchun beriladi. Reklamalarning ba'zilarida sotuvga qo'yilayotgan mulk yoki mahsulotning fotosurati ham qo'shib beriladi. Namunalar:

1. "Asaka bank: ishonch, unum, daromad!" ;

"G'alla bank: sizdan harakat, bizdan barakat!" - "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2008-yil 2-may.

2. Faqat gaplashgan soniyalaringiz uchun haq to'lang.

"Shunchaki soniyali" tarif rejasи.

"Shunchaki soniyali" tarif rejasи – bu suhbatning birinchi soniyasidan boshlab soniya bo'yicha tariflash demakdir.

O'zbekiston bo'ylab barcha qo'ng'iroqlarning to'liq bir daqiqasining bahosi - \$ 0,36 dan iborat. Tarmoq ichidagi kirish qo'ng'iroqlari bepul.

Batafsil ma'lumot uchun: 06064 (telefon), 9166064 (faks), [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz). Xizmatlar litsenziyalangan. "Bilайн" – hayotning yorqin tarafida bo'l.

"Tasvir", 2008-y., 19-son.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, turli tijorat xabarları, bank-tijorat e'lolnları va "O'qishga marhamat" mazmunidagi har xil e'lolnlar hozir ko'payib ketgan va barchasi mohiyatiga ko'ra e'lol mazmunida.


Nutqning hamma vaqt zamon ruhiga mos ommabop bo'lishida ommaviy kommunikatsiya vositalari – matbuot, radio va televideniyening yaqindan hamkorligi va ta'siri muhim rol o'ynaydi.

### Badiiy nutq

Badiiy adabiyotga xos nutq (badiiy asarlar tili) badiiy nutqdir. Yuqorida ko'rib o'tganimiz nutq turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biridan alohida, mustaqil holda yuzaga chiqsa, badiiy nutqda nutqlarning hamma turi qatnashishi mumkin. Badiiy nutq alohida tur nutq bo'lib, u davrning muhim ijtimoiy masalalarini badiiy obrazlar va badiiy bo'yoqlar vositasida tasvirlaydi hamda kitobxonga birinchi galda estetik ta'sir ko'rsatadi. Badiiy nutq hissiyotga boy bo'ladi, u o'quvchilarda ijobji his-tuyg'ularni uyg'otadi, yomonlik va yaxshilikni ajratishga, olijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashga, hayotga, mehnatga muhabbat hislarini o'stirishda xizmat qiladi.

Tilga munosabat tomonidan ham badiiy nutq alohida ajralib turadi. Ilmiy, rasmiy va ommabop nutqlar adabiy til me'yorlariga asoslansa va adabiy nutq hisoblansa, badiiy nutqda adabiy nutqni ham, so'zlashuv nutqini ham ko'rish mumkin. Shu jihatdan badiiy nutqning ikki tomoni: muallif nutqi va personaj nutqi ajratilib, muallif nutqi adabiy tilga asoslansa, personajlar nutqida so'zlashuv nutqiga xos sheva xususiyatlari (dialektizmlar), kasb-hunarga doir so'zlar, jargonlar, hatto, vulgar so'zларни ham uchratish mumkin. Shuning uchun "Badiiy nutq – adabiy nutq namunasi" deyishda ehtiyyot bo'lish kerak.

Badiiy nutqda yozuvchi tildan manzaralar, obrazlar va ularning o'ziga xos xarakterlarini, xususiyatlarini yaratish uchun foydalanan ekan, uning mahorati, tajribasi, tilni qadrlashi ayni mana shu jarayonda namoyon bo'ladi. O'quvchini ishontirish uchun, ishontirishgina emas, unga g'oyaviy va estetik jihatdan ta'sir qilishi. Imtiyozlari his-tuyg'ular uyg'otish uchun



ijodkor voqealar, manzaralarni oddiy qora-oq tasvirda emas, kamalak ranglaridek turfa ranglarda, turli badiiy tasvir vositalari (o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a va boshqalar)dan foydalangan holda tasvirlaydi. Badiiy asar tilida til lug'at boyligining hamma qatlamlriga xos so'zlar (eskirgan va yangi, zamonaviy; adabiy va noadabiy; o'z qatlamga xos va o'zlashma so'zlar), frazeologik iboralar, maqollar va matallar qatnasha oladi.

Badiiy adabiyotning hayotning, kundalik turmushning muhim mavzulariga hozirjavob bo'lishi unga qo'yiladigan asosiy talablarning biridir. Shu ma'noda badiiy adabiyot publisistik bilan, badiiy nutq esa publisistik nutq bilan yaqinlashadi:

#### *Umr hikmati*

*Inson umrining o'zi bir hikmat. Zero, bu hayotda kimgadir umrning oppoq daftarini nurli bitiklarga to'ldirib yashash, kimgadir butun umr ezgu o'y, ezgu amallar yog'du sochib turgan manzillarga intilib yashamoqlik baxti nasib etadi.*

*Tasavvur qiling: aql mash'ali bilan ming yillar burun dengiz ortini yoritgan Beruniy siyosini jonlantirmoq uchun ulug' vatandoshimizning tafakkur olamiga qay darajada oshno bo'lmoq va uni qay darajada idrok eta olmoqlik talab etiladi. Qolaversa, shunday daho bilan dardlashgandek bo'lib, ul zotning tafakkur ziyoсидан bahramand bo'lishga havas uyg'otguvchi tuyg'uni avlodlar qalbiga joylash ehtiyoji-chi? Buning uchun igna bilan quduq qazigandek o'nlab kitoblarni mutolaa qilish, ona tarixni shunchaki bilishning o'zигина kamlik qilar. Ehtimol, o'tmishimizning yorug' timsollaridan o'z qalbiga nur indirish va bu nurni ranglar jilvasida tasvir etish san'ati ham zarur bo'lur.*

*Atoqli musavvir Malik Nabihev qalbida ulug' ajdodlarimiz shavkatidan faxr-iftixon hissini tuyish shu qadar kuchli bo'lganidan u Amir Temurdek buyuk sohibqiron suvrati va siyratini xalqimizga manzur bo'ladigan darajada gavdalantirishga tuyinbo'shlar bo'ldi.*

*Murod Abdullayev."O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gaz., 2008, 2-may.*

XX asrning II yarmida, Ulug' Vatan urushidan keyingi sovet davri o'zbek adabiyotida, masalan, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" asarida, Oybekning "Oltin vodiyan shabadalar" romani, Sh.Rashidovning "G'oliblar" asarida, H.Olimjon, G'.G'ulom, M.Shayxzoda she'riyatida o'z davrining dolzarb mavzulariga hozirjavoblik, davlat va partiya yo'l-yo'riqlarini xalqqa badiiyat orqali yetkazish ruhi yaxshi ifodalangan.

Keyingi davr o'zbek adabiyotida ham Asqad Muxtor, Said Ahmad, Odil Yoqubovning yirik nasriy polotnolarida, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yetuk shoirlar ijodida jangovar publisistik ruh yorqin aks etadi. Bu ruh she'riyatda shoirning "men"i orqali, uning o'z ichki kechinmalarining bayoni bilan, nasrda esa asarning bosh qahramonlari nutqi orqali yangraydi. Ayrim namunalar keltiramiz :

*"Biz butun bir sahroni o'zlashtiriyapmiz, ortoqlar. Ammo eng muhim ishlar – yo'l, energetika, kommunikatsiya, shahar qurilishi singari juda ko'p masalalarni hal qilishda o'zlashtirilayotgan yer yagona bir butun territoriya ekanligi hisobga olinmayapti. Har bir tarmoq, har bir soha o'z obyektiga zo'r beradi: mening zavodim, mening quvurim, mening yo'lim, mening posyolkam... Bu tabiiy, hammaning o'z plani, muddati va o'z mas'uliyati bor. Lekin ishimizda keraksiz parallelar juda ko'p. Bir joyda zavod qad ko'tarsa – yonida, albatta, posyolka paydo bo'ladi, nariroqda kon ochilsa – yana posyolka o'sib chiqadi. Qarabsizki, kommunikatsiya bilan bir-biriga bog'lanmagan, hech qanday qulayligi bo'limgan vaqtincha posyolkalar uymalashib, katta "sanoat qishloqlari" paydo bo'ladi. Bular bizga tabiiy tuyuladi, chunki muvaqqat qurilishlar smetada ham ko'rsatilgan. Lekin bir kuni borib og'zimizni ochib, ag'rayib qolamiz: bu ahvol qandoq yuz berdi? Gigant zavod bor-u, hozirgi zamon ishchisi yashaydigan joy yo'q – hamma jo'nab qolish payida. Yo'llar vaqtincha, beton uzellari vaqtincha, hatto vaqtincha temir yo'llar, sanoat bazalari ham bor. Chunki har kim o'z obyektini bitirib olguncha! Bir territoriyada bir xo'jalik ishini qilayotgan tarmoqlarning kelishib olishini muncha murakkablashirmsak, o'rtoqlar? Savol tug'iladi: o'zlashtirilayotgan sahroda yagona xo'jayin bo'lishi ma'qul emasmi? Toki u butun ishlarni bosh-oyog'i bilan o'z izmiga olsa!"*

(A.Muxtor."Bo'ronlarda bordek halovat" romanidan).

Million yillik so'z erur paxta bizning lug'atda,  
Jo'yaklarda boshlangan onalar tolg'oq dardi.  
Mabodo o'simlikka zabon bitsa, albatta,  
Paxta navi eng avval o'zbekcha gapirardi.  
Bizning uyg'an xirmonga chambar qilsang chechakdan,  
Yulduzlar shabnam misol bo'lardi unga inju.  
Bolasi uyda qolgan mushtipar kelinchakdan  
Xizrsifat cholgacha – barchaning mehnati bu!  
Xalqim, sensan ellarda to'kin dasturxon tuzgan,  
Ne'mating hamisha ham barqaror bo'lsin deyman.

Uygan bu xirmoning ham quyoshta qo‘lin cho‘zgan  
Muhtasham haykalingga poydevor bo‘lsin, deyman!

(Abdulla Oripov, “O‘zbek paxtasi”).

Istiqlol davri badiiy adabiyoti sahifalarini varaqlar ekanmiz, hozirgi davr badiiy adabiyoti tili, badiiy nutq nasriy asarlarda ham, nazmiy asarlarda ham yangi ruh bilan boyiganini, yangi-yangi obratzlar bilan birga, yangicha nutqiy vositalar ila boyiganini ko‘ramiz. Bu so‘zlarning tanlanishida ham, yangicha gap shakllarida ham, fikrlar hamda histuyg‘ularning davr ruhi bilan hamohang, hamnafas bo‘lishga intilishida ham ko‘rinadi. Namunalarni solishtiraylik:

1.”Nasim oshna, men birinchi ko‘ngildan iffatlisini ko‘rmadim, birinchi ko‘ngildan so‘nmasini ko‘rmadim.

Oshiq umrim mobaynida juda ko‘p qizlarni ko‘rdim.

Men qizlarni ko‘chalarda, teatrlarda ko‘rdim, to‘y-ma’rakalarda, kinolarda ko‘rdim. Bari qizlar xushro‘y-xushro‘y... Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar? Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar!

Hind qizlari to‘lg‘anib-to‘lg‘anib, eshilib-eshilib o‘ynadi!

Hind qizlari har qancha eshilib o‘ynasa-da, to‘lg‘anib o‘ynasa-da, baribir... baribir, Momoqizga kelbat bermadi. Hind qizlari-da Momoqiz bo‘lolmadi.

Oshna, Tilovberdining onasiga-da ko‘nglim ketib uylandim. U... u Momoqizdan-da xushro‘y...

Oshna, uyam Momoqizning oldidan o‘ta bersin!

Nasim oshna, men Momoqizdan ulug‘ini ko‘rmadim!”

Tog‘ay Murod,”Yulduzlar mangu yonadi”.

2. Otalar va bolalar

Men otamga tortganman asli,  
Muhabbatim otalarga xos.  
O‘n beshimga yetmasimdanoq  
Qizlarga gap tashlaganim rost.

Qizlar esa onaga tortgan,  
Sevdirishning yo‘lini bilar.  
Goh kuydirib, goho yondirib,  
Onasining qilig‘in qilar.  
O‘g‘illar-chi, ular ham ishqda

Otalari yo‘lidan bordi.  
Uylab qo‘yay desam, bittasi:  
“Yashang, ota, qoyil!” devordi.  
Muhabbat-la tug‘ilib o‘sgan,  
Biz shundayin ulug‘ basharmiz.  
Odam Ato, Momo Havodan  
Qolgan sevgi bilan yashaymiz.

Abdulla Ma’diyev.”O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gaz., 2008, 2-may.

*Kimga mazax*

Birodar, men Sizga bir telbanamo savol berayin-u, Siz bundan ajablana ko‘rmang. Donishmanddan: “Telbanamo savoldan durusti nadur?”- deb so‘ralganida, u: “Telbanamo savoldan durusti – tentaknamo javob erur”,- degan ekan. Savolim bunday: tasavvur qilingkim, kamina bir homiyning sarmoyasi ila chiqadurg‘on gazitda muxbirdurman. Gazitning nomini asti so‘ramang. Ammo-lokigin Yo‘qqulobodimizda chiqadurg‘on “Burgachi”mi, “Bitliqi”mi, “Teskari ko‘ngil”mi deganlariga o‘xshata ko‘rmangkim, alarg‘a o‘xshashdin Xudoyim asrag‘ay! Bizning gazit ular kabi ming-minglab nusxada chop etilmagaykim, bemaza qovunning urug‘i ko‘p bo‘lg‘ay, demishlar donolar. Bizning gazit bir bilan bir yarim ming orasinda tebranib tursa-da, o‘ladurg‘on emasdur va o‘lim nishonasidin xiyla uzoqdur. Maosh va “gonorar” atalmish tiriklik suvining qurishidan tashvishimiz yo‘qdur.

Tohir Malik, “Ushlang o‘g‘rini!”- Hajviyalar Toshkent, “Davr-press”, 2007.

Bu uch misol uch qalam egasining har biri o‘ziga xos uslubga egaligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. 1-misolda lirik tuyg‘ular kuchli, 2-misoldagi she‘r hazilomuz yo‘sinda yozilgan. 3-misol detektiv va fantastik nasr ustasi Tohir Malikning hajviya yozishda ham mahorati borligini namoyish qiladi.

Xullas, badiiy nutq ko‘p qirrali nutq bo‘lib, tilning boyligini, butun imkoniyatlarini to‘lig‘icha aks ettira oladi. Shuning uchun tilni o‘rganish, undagi o‘zgarishlarni kuzatishda badiiy nutq (badiiy adabiyot tili) asos bo‘lib xizmat qiladi.

## So‘zlashuv nutqi

Tilning kishilar o‘rtasida aloqa-aratashuv vositasi bo‘lib xizmat qilishi so‘zlashuv nutqida namoyon bo‘ladi. So‘zlashuv nutqi monolog va dialog yo‘sinlarida yuzaga chiqadi. So‘zlashuv nutqi qaysi shaklda yuzaga chiqishidan qat‘i nazar, til xususiyatlari ko‘ra ikki ko‘tinishga, ya’ni adabiy-madaniy nutq va oddiy so‘zlashuv nutqiga ajratiladi.

Adabiy-madaniy nutq adabiy til me’yorlariga, nutq madaniyati me’yorlariga asoslanadi. So‘zlarning va grammatic shakllarning tanlanishi, ularning to‘g‘ri, adabiy talaffuzi, gapda gap bo‘laklarining joylanish tartibi, nutq ohangi va sur’ati – hammasi so‘zlovchining o‘z nutqiga ham, tilga ham e’tibor bilan yondashishi, bilimi va madaniy saviyasining darajasidan dalolat berib turadi. Yuqori darajadagi, yaxshi nutqda o‘rinsiz dialektizmlar, jargonlar (biron guruh vakillarining nutqiga xos so‘zlar), haqoratomuz so‘zlar, jumlalarni poyma-poy tuzish kabi nuqsonlar bo‘lmaydi. Radio eshitirishlari, teleko‘rsatuvlar, turli kengash va majlislar, oliy va o‘rta maktablardagi darslar tabiiyki, adabiy-madaniy nutqda olib boriladi. Lekin adabiy-madaniy nutq, ayniqsa, adabiy talaffuz me’yorlari hali to‘la o‘rganilmagan va nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Hatto respublika radiosи va televide niyesi suxandonlarining nutqida ham ayrim tovushlar va so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishi, takt va urg‘uga yetarli e’tibor bermaslik, nutqda ko‘p hollarda “navbatchi so‘z va iboralar”ning g‘ashga tegadigan darajada takrorlana berishi (“muloqotga kirish”, “islohotlarni chuqurlashtirib”, “xizmatlar litsenziyalangan”, “fermer xo‘jaligi mahsulotlari” kabi) va boshqa nuqsonlarning borligi sir emas. Bunday kamchiliklar suxandonlar nutqidagina emas, turli intervylular, ma’ruzalar va suhbatlarda ham tez-tez uchrab turadi. “Shtamp” so‘z va iboralarning tez-tez uchrashi nutqning ta’sirchanligini, so‘z qadrini pasaytiradi, nutqni qashshoqlashtiradi.

Lekin, umuman olganda, turmush madaniyatining, ilm-fanning, umumiy saviyaning o‘sishi bilan barobar odamlarning nutq madaniyati oshib borayotgani, xushmuomalalik, adabiy-madaniy nutq me’yoriy holatga aylanib borayotgani ayon. Kamchiliklar esa ko‘proq xususiy xarakterda bo‘lib, ularni yo‘qotish hamimamizning vazifamizdir.

Oddiy so‘zlashuv nutqi birmuncha “erkin” bo‘lib, adabiy tilning qonun-qoidalariga rioya qilishi, ya’ni adabiy-madaniy nutq bo‘lishi shart qilib qo‘yilmaydi. Tovush va so‘zlarning talaffuzida, so‘z va iboralarning, grammatic vositalarning tanlanishida mahalliy sheva xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi.

## Kimga mazza

Aytaylik, gazitda mening maqolam chiqdi. Bu yog‘i kechgacha tarallabedod yalla! Choyxonaga borurman, palovxonto‘ra bilan tillashurman. Bekorchi qulqoq topilsa, sayrab ham berajakman. Ertani o‘ylab tashvish chekmoqlig kaminaga yot erur. Sababkim, kechga yaqin boshlig‘im chaqirur-da, “Gazitimiz homisi Falonchixo‘ja akamizing sigirlari ikkita tug‘ibdi, shuning kiftini keltirib yoz, okovsi”, - der. Aytish xo‘jayindan – yozish kaminadan. Xonamga chiqqanim hamon Falonchixo‘janing uyiga telpon qilurman.

T.Malik, “Ushlang o‘g‘rini!”, T.- 2007.

Boshqa qardosh tillarning, ayniqsa, rus tilining ta’siri jonli so‘zlashuvda og‘zaki adabiy nutqdagiga nisbatan kengroq ko‘rinadi. Bu tabiiy holdir, chunki bir tilning ikkinchi tilga ta’siri, avvalo, leksikada (so‘z boyligida) ko‘rinsa, so‘zlarning o‘zlashishi og‘zaki so‘zlashuv nutqidan boshlanadi. Masalan, adabiy nutqqa o‘tmagan ostanovka, tochno, soveshaniye, obshiy, privet, kraska kabi ruscha so‘zlar o‘zbekcha jonli nutqda tez-tez eshitilib turadi. Bundan tashqari oddiy so‘zlashuvda har xil toifa (kasb-kori, ma’lumoti, yoshi, jinsi va h.k. belgilariga qarab) kishilariga xos so‘zlar ham qo‘llanishi mumkin. Ulardan ba‘zilari shunga ehtiyoj sezilsa, keyincha adabiy nutqqa o‘tishi ham mumkin: jaydari, pudrat, po‘rim, bebiliska, sandiqzada, porom, po‘kach, avsat, rag‘at, arrapusht kabi. Bu so‘zlar keyincha semantik yaqin so‘z bilan birikma hosil qilgan holda adabiy nutqqa ham o‘tganini kuzatish mumkin: jaydari bug‘doy, brigada pudrati, po‘rim kiyangan, bebiliska topilgan pul (soviet davriga xos), sandiqzada mol, porom so‘zlar, po‘kach (pugach) to‘poncha, avsat (kundalik) to‘n, rag‘atga (davraga) kirmoq, arrapushti (umurtqasi) lat yebdi kabi.

Adiblar o‘z qahramonlarini individuallashtirish, shirador badiiy nutq yaratish maqsadida oddiy so‘zlashuv nutqidan keng foydalanadilar:

- Cho‘qqi orqasidagi yo‘lga xarsang qulagan, o‘tolmaysizlar. Ekskavatorchiga telefon qilishdi, kelsa, yo‘lni ochib beradi.

Xosiyatxon hafsalasi pir bo‘lib, kabinadan tushdi. Xarsangga o‘tirib olgan bir shofyor yigit atrofini o‘rab olganlarga yo‘lni tushuntirardi:

- Ikki yil shu yo‘l qurilishida ishlaganman. Ishning zo‘rini ana shunda ko‘rganman. Ko‘p ustalar bor edi. Ekskavator, buldozer deganlari qumursqadek to‘lib ketgan. O‘shanda odamlar tosh bilan, oftob bilan olishib ishlashgan. Siz manavi tayyor yo‘ldan ketyapsiz. E-ha, qurish oson bo‘limgan bu yo‘lni. Bir Rustamion degani bor edi. Yo qudratingdan, tosh

*otishni ana o'shanga chiqargan edi. Badani oftobda xuddi misga o'xshab qizari ketgan. o'zidan katta toshlarni ko'tarib, pastga uloqtirardi-ya...*

*Bir kun ko'chki tushib, buldozerni bosib qolibdi. Har toshlarki, odamning yahmi keladi. Nachalnik kelib, kim toshlarni olib tashlasa, besh norma yozaman, deb qoldi. Hech kimdan sado chiqmadi. Bir chetda o'tirgan Rustamjon o'rnidan turdi-da, piching qildi:*

*- Besh norma o'zingizga siyloy, nachalnik. Toshlarni o'zim olib tashlayman.*

Said Ahmad, "Yo'lda".

Ayniqsa, bolalar nutqi og'zaki so'zlashuvga xos tabiiylik, jonlilik, ohangdorlik kabi belgilarni o'zida yaqqol aks ettiradi:

Boqjon, samovarga qarab tur, - dedi oyisi.

Oyi, samovarga qarab turdim, u eri-ib ketdi.

Bolalarning sevimli shoiri Po'lat Mo'min bolalarning tabiatini ham, nutqini ham juda yaxshi bilardi va tushunardi. U qator she'rlerida bola obrazini uning o'z so'zlar bilan ko'z o'ngimizda gavdalantirgan:

**Yashasin, kelsa mehmon,  
To'lib ketar dasturxon.  
Shokolad, marmaladi,  
Hammasi soz, g'alati.  
Konfetga qo'l uzatish,  
Deyishadi, uyat ish.  
Menda bor qunt, iroda,  
O'tiraman yiroqda.  
Konfetlar yilt-yilt etar,  
Ko'zlarim g'ilt-g'ilt etar...  
Tutsam hamki o'zimni,  
Eplolmayman ko'zimni.  
Qaray desam bir chetga,  
Ko'zim og'ar konfetga.**

Og'zaki so'zlashuv nutqi hammada birday emas. Ayrim kishilarning va bolalarning nutqida uchraydigan ortiqcha (parazit) so'zlar so'zlovchining fikrini, maqsadini anglab olishni qiyinlashtiradi, nutqni xiralashtiradi. *Anaga, bu, to-yest, znachit, demak kabi ortiqcha so'zlar; hm, tak, xo'sh, nu kabi undovlar nutqni bezamaydi, balki eshituvchining diqqatini chalg'itib, g'ashiga tegadi.* Bu haqda shoir E.Vohidov "Nutq" degan hazil she'rida shunday deydi:

**\_ Har so'zida "bu", "anu",  
"Haligi", "so'ng", "qanaqa".  
"Bu - bu" deydi – nima bu,  
"Shunaqa"si – qanaqa?  
Tiliga kelib qolgan  
So'zdan qayta olmasa,  
"Bu" qo'shmasdan savolga  
Javob ayta olmasa.  
O'zingiz o'ylab ko'ring,  
Nima bu, qanaqasi?  
Qachon qolar O'tkirning  
"Nima", "bu", "anaqasi?"  
To'g'ri, aniq gap tuzib,  
Javob bergen so'roqqa.  
Xizmat qilsin har so'zing  
Fikringni to'latmoqqa.  
Mazmun nomli mo'ljalga  
So'z otilgan o'q bo'lsin.  
Nishonga tegmay qolgan  
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin.**

Og'zaki so'zlashuv nutqida fikrning tushunarli ifodalanishi uchun nutq maromi, urg'u va taktlarni to'g'ri belgilash, mazmun va ohangdorlikni uyg'unlashtirish, tovushlar va so'zlarni dona-dona va aniq talaffuz qilish katta ahamiyatga ega. Bir xil ohangda gapirish tinglovchilarni zeriktiradi, so'zlarni tez va chala-chulpa talaffuz qilish esa nutqni tushunishni qiyinlashtiradi; ikkalasi ham unga bo'lgan qiziqish va diqqatni susaytiradi, bular notiqning maqsadga erishishi – o'z fikrini suhbатdoshiga, tinglovchilarga yetkazishiga jiddiy halal beradi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nutqning qanday shakllari mavjud? Ular qaysi sohalarda ko'proq uchraydi?
2. Nutqning uslubga ko'ra turlarini sanang.
3. Ilmiy nutq haqida ma'lumot bering va unga misol keltiring.
4. Rasmiy xabarlar, yozishma va hujjatlar nutqini namuna keltirish orqali tushuntiring.
5. Badiiy nutqqa misol tarzida badiiy adabiyotdan parcha keltiring.

6. So'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib, namuna keltiring.

7. Berilgan misollarning qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang.

a) xayriya konserti o'ziga xos kichik yulduzlar shousiga aylandi.

b) mazkur kodeksning 290-moddasi 5-bandiga ko'ra yolg'iz pensionerlar yer solig'idan ozod qilinadi.

d) bahorda qishloq bolalari zag'izg'on inini buzhshgandi, ulardan bitta jo'jasini sotib oldim.

8. Berilgan so'zlar nutqning qaysi uslubiy turiga xos?

*Krosslash, futzal, zakalat, reyestr, kuni kecha, minibank, bozorbop, malham, vazifa, ayolmand, kulgisevar, avtoxizmat, servis, nafis, yangilik, murojaat qilmoq, yo'qsil, avaxta, tadrij, bozorchi, xipchin, chamanzor, aftodahol, butlovchi qismlar, maktab fondi, shopir, missiya, godovoy, ofis, modul, sotvolaman, monopoliya, sohib, gulgun, jamg'arma, baxt-saodat.*

## **<sup>1</sup>O'ZBEK ADABIY TILI. ADABIY TIL ME'YORLARI VA NUTQ MADANIYATI**

Adabiy til "umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasidir".

O'zbek xalq adabiy tilining shakllanishi o'zbek xalqining buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy "Xamsa", "Xazoyinul maoniy", "Mahbubul qulub", "Muhokamatul lug'atayn" kabi asarları bilan o'zbek adabiyotini yuksaklikka ko'tardi va ayni paytda xuddi shu ulkan va bebafo ijodi bilan yagona o'zbek xalq adabiy tiliga asos soldi. Alisher Navoiy hamma vaqt turkiy (o'zbek) tilni ulug'ladi, uning boyligini o'z ijodi bilan namoyon qildi, boyligiga boylik qo'shdi. Navoiy so'z qadrini, so'z va tilning keng imkoniyatlarini chuqur anglagan holda quyidagi hikmatli, dono o'gitlarni bitdi:

So'zdurki, nishon berur o'likka jondin,  
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin,  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

"Ko'ngul mahzanining qulfi til va mahzanning kalidin so'z bil".

O'zbek xalq adabiy tilining rivojida Boburning she'riyati va birinchi o'zbekcha yirik nasriy asar "Boburnoma"ning yozilishi, XVIII-XIX asr o'zbek demokratik adabiyotining yirik vakillari Turdi Farog'iy, Ogahiy, Muqimiyy, Furqat, Maxim kabi shoirlarning ijodi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xalq manfaatini himoya qilgan bu shoirlar, albatta, xalqning ahvolini, turmushi, dard va orzularini yaxshi bilganlar hamda o'z ijodlarida xalq ruhiga mos keluvchi, uning kechinmalarini ifodalovchi, xullas, unga yaqin, xalqona so'z va iboralarni ko'plab qo'llab, adabiy tilni boyitishga, uni xalqqa yaqinlashtirishga xizmat qilganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo chor Rossiyasiga qo'shib olinishi bilan o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, umuman, turmush o'zgarib ketdi va o'zbeklar hayotiga ruslar hayoti va iqtisodiyotiga oid ko'plab yangi buyum, jihoz, iste'mol mollari kirib keldi, rasmiy idoralarning ish yuritish tartibi o'zgardi, dunyoviy ilmlarni o'qitish dargohlari ochildi. Bularning hammasi o'zbek tilida ko'plab yangi so'zlar va iborlarning ham paydo bo'lishiga olib keldi. O'sha davr shoirlari va tarjimonlari ijodida mana shu

<sup>1</sup> Hojiyev A., Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi. 1985, 12-bet.

jarayon yaqqol o‘z ifodasini topgan. Masalan, Furqatning “Vistavka xususinda”, “Gimnaziya”, “Royal xususinda” kabi masnaviylari, Muqimiyning “Hajvi Viktor boy”, “Veksil”, “Maskovchi boy ta’rifida”, “Ta’rifi pech”, Zavqiyuning zamon o‘zgarishlarini aks ettiruvchi turkum she’rlarida qo‘llangan *tilgof, telpon, pech, dabernas* (доверенность), *bo‘lus* (волоссть), *kontur, chas* (часть), *samovar, suruk* (срок), *do‘g‘ma* (дума), *davay, kalish, gazitxona, fonus, purjina, uyoz, shapka, piyon, zovut, kuples* so‘zlari haqiqatan fikrimizning isbotidir.

Til - ijtimoiy ongning ko‘rinishlaridan biri, jamiyat a’zolari orasida kommunikatsiyaning eng muhim omili bo‘lgani uchun uning rivojlanishi ham o‘z navbatida yana shu ijtimoiy hayot bilan, bu hayot egalarining aqliy, ilmiy, madaniy saviyalari, shu hayot asosidagi iqtisodiyotning ham rivoji bilan uzviy bog‘liq. Shu jihatdan olganda, Oktabr inqilobiy to‘ntarishidan keyingi sovet tuzumi davrida sobiq SSSR tarkibida XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan O‘zbekistonda hayotning tubdan o‘zgargani, hokimiyatning mehnatkash qo‘liga o‘tgani hamda xalqning savodli, ilmli, sog‘lom bo‘lishi, erkaklar va xotin-qizlarning teng huquqli bo‘lishlariga ko‘p ahamiyat qaratildi. Shu bilan birga, xalqning diniy e’tiqodlari, o‘ziga xos milliy udumlariga, tiliga, aksincha, e’tibor kamaydi; chunki bu zamonda tabiat va jamiyat qonunlari materialistik falsafaga suyanib ish ko‘rar edi. SSSRdagи barcha respublikalar, jumladan, O‘zbekistonda ham “qardoshlik va birodarlik tili” bo‘lgan rus tilining ta’siri kuchli edi. Eng avvalo, rus kirill grafikasi asosidagi alfavitga o‘tildi, undan keyingi yillarda esa sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, madaniyat va san‘at, ilm-fanning tez sur‘atlardagi taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rus tilidan bevosita va bilvosita Yevropa tillaridan ko‘plab so‘zlar, affikslar hamda qisqartmalar o‘zlashtirila boshlandi. Ruscha va internatsional so‘zlar hisobiga bu davrda o‘zbek tili beqiyos darajada boyidi.<sup>1</sup>

Hatto rus tili O‘zbekistonda aholining ikkinchi tiliga aylandi, bilingvism yuzaga keldi. Bu o‘zbek tilining tashqi omil hisobiga boyishi edi. Ichki omillar hisobiga tilimizning o‘zgarib, boyib borish jarayoni esa susayib ketdi. Ayniqsa, milliy turmush tarziga xos so‘zlar, iboralar, murojaat so‘zları, qo‘srimchalar qo‘llanishdan chiqib bordi. Masalan: *rag‘at* (*muhit*), *imlama mehmonorchilik*, *iskart* (*o‘lchov, me’yor, chevara*), *avsat* (*to‘n*) – *o‘rtahol* (*to‘n*), *arrapusht* (*umurtqa suyagi*), *imoratsoz*, *sandiqzada*, *porom*, *po‘kach*, *kursi*, *bozorchi*, *kosib*, *chilangar*, *qandolatpaz*, *g‘oyibona*, *nuridiyda*, *toqati toq*, *doli guliga kelibdi* kabi.

<sup>1</sup> Bu haqda tanigli tilshunoslardan F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usimon, F.Kamol, R.Doniyorov, E.Begmatov, N.Mahmudov, N.G.ualomova, M.A.Iamova va boshqa olimlarning ishlarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tiliga rus tilidan va u orqali boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirilishiga bir umumiy nazar tashlagandayoq, bu so‘zlar o‘z davrining ruhiyatini aks ettirishini kuzatish mumkin. Demoqchimizki, 30-yillardagi o‘zlashtirilgan so‘zlar 40-yillarnikidan, bu davrlarga xos so‘zlar esa 50-70 – yillar oralig‘ida o‘zlashgan so‘zlardan farq qiladi. Adabiy tildagi salmog‘i va og‘zaki so‘zlashuv nutqidagi salmog‘i nisbati ham. Masalan, 30-40 – yillar davriga xos o‘zlashgan so‘zlarga misol qilib: *samovar* (*choyxona ma’nosida*), *doktorxona*, *park*, *izvosh*, *pristav*, *notarius*, *akatsiya*, “*Russko-aziatskiy bank*”, *pivoxona*, *vaza*, *rezinka*, *ofitser*, *turma*, *gazeta*, *internat*, *amrikon*, *minut*, *kilometr*, *kolxoz*, *tabelchi*, *progul*, *stol*, *patefon*, *kachalka*, *membrana*, *shaxmat*, *shirkat*, *ferma*, *pochtaxona*, *adres*, *blanka*, *akademiya*, *institut*, *metod*, *poyezd*, *kerosin*, *ZAGS*, *aktiv*, *rayon soveti*, *uborshitsa*, *dokladchi*, *shofyor*, *gruzovoy*, *mashina*, *portret*, *staxanovchi*, *chislo*, *byulleten*, *rabfak*, *texnikum*, *kanselariya*, *praktikum*, *minimum*, *maksimum*, *sud*, *sudya*, *ekspluatatsiya*, *realizm*, *obyekt*, *fiziologiya*, *direktor*, *otvod*, *nomer*, *traktorist*, *plastinka*, *pojar*, *kultura*, *borjom* kabi qator so‘zlarni keltirish mumkin. 50-70 – yillarda o‘zlashgan so‘zlar esa Ikkinchi jahon urushidan keyingi tinch qurilish, qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish, fan-texnika va madaniyat yuksalgan SSSRdagи xalqlarning do‘stligi kundalik turmushimizning belgisiga aylanib ketgan yillarda esa quyidagi so‘zlar amalda bo‘lgan: *vilt*, *godovoy*, *gudok*, *dejur*, *doxod*, *ideya*, *kadr*, *kandidat*, *kanikul*, *kvalifikatsiya*, *kvartal*, *besh yillik*, *kitel*, *klesh*, *klub*, *kollektiv*, *mayovka*, *konkurent*, *zayom*, *zakaz*, *otvyortka*, *parad*, *povestka*, *nakladnoy*, *proba*, *pristup*, *razbor*, *priyomnik*, *sberkassa*, *sbor*, *setka*, *sort*, *spekulant*, *staj*, *etaj*, *subbotnik*, *schotchkik*, *klass*, *tipovoy*, *podxod*, *ukol*, *propiska*, *chekanka*, *polka*, *chexol*, *shuba*, *sessiya*, *kanal*. Bu so‘zlar shunchalik faol va keng qo‘llanar ediki, ularni adabiy til me’ori darajasida qabul qilish mumkin edi. Og‘zaki so‘zlashuv nutqida esa o‘zlashtirilgan: *akkuratno*, *daje*, *uje*, *zaraza*, *zapiska*, *znachit*, *legkovoy*, *upravleniye*, *soxraneniye*, *roddom*, *priyomniy pokoy*, *porok serdsu*, *podarka*, *napor*, *pechat*, *peredacha*, *rashod*, *rabochiy*, *svidaniye*, *sovsem*, *spiska*, *srazu*, *stroyka*, *tolko*, *trudovoy*, *sokrasheniye*, *ustupka*, *sentr*, *chernovoy*, *shishka*, *yavka* so‘zları shunchalik singib ketgan ediki, o‘zbekning o‘z ona tilida erkin so‘zlashib, fikr almashish mumkinligiga shubha tug‘ila boshlagan va bu holat, ayniqsa, 80-yillar oxiriga kelib o‘zbek tilining keyingi taqdiri qanday bo‘lishi haqida xavotirli o‘ylarga olib kelgan edi. Xayriyatki, 1989-yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi rasmiy tarzda berilishi bilan Respublikamizning o‘z Mustaqilligiga chiqishi yangi - o‘zligimni topaman

degan xalqimizning orzusi ro'yobga chiqishi davri boshlandi. O'zbek tilining o'z qadrini topib, oyoqqa turishi, avvalo, o'zbek tilining boyishi, rivojidagi shu paytgacha e'tibordan chetda qolib kelayotgan ichki manbalar: shevalardan so'zlar va qo'shimchalarini adabiy tilga o'tkazish, eskirib iste'moldan chiqib ketgan arxaizm-so'zlarni va qo'shimchalarini faollashtirish, o'zlashib, "me'yoriy" maqomga ega bo'lgan va faol qo'llanib kelgan ruscha-xorijiy so'zlarni o'zbekcha muqobili bilan almashtirish davri boshlandi. Dastlabki yillarda kundalik matbuot, radio va televideniye nutqida, rasmiy ish yuritish doiralarida bu borada anchagina yanglishish, chalkashliklar hukm surdi, vaqtincha amaliyotda bo'lgan nohiya/tuman, uchqich/tayyora, ofitsier/zobit, bilet/chipta, belkurak/lopatka, kanselariya/devonxona, kulliyot/fakultet, oliygoh/oliy o'quv yurti, savdo/tijorat dubletlari Respublikada Atamalar Qo'mitasi ish boshlab, bu xil chalkashliklarni bartaraf qilishda o'z salmoqli hissasini qo'shishi, ijod ahli va sohalar mutaxassislarining harakatlari bilan ancha izga tushdi; me'yorlar ishlana bordi. O'zbek alifbosining kirill yozuvidan lotin yozuviga o'tishi muddati davomida esa yangi orfografik me'yorlar qat'iylashdi. Internet bilan aloqa, kompyuterda ishslash, SMSlar yuborish bunda o'z hissasini qo'shyapti. Yangi iqtisodiy-ijtimoiy tuzum, jahon axborot tizimiga ularish, biznes va tijoratning, yangi madaniy aloqalarning rivojlanishi respublikaning jahonga chiqishiga kuchli omil va vositalar bo'lib xizmat qila boshladi. Natijada xorijiy davlatlar bilan aloqalarga keng yo'l ochildi, ayniqsa, yoshlarmiz ta'lim tizimi, bank-tijorat-biznes va kasb-hunar kanallari orqali xorijiy mamlakatlarda tez-tez bo'lyaptilar, ingliz, nemis, xitoy va boshqa tillarni o'rganishga qiziqish kuchaydi. O'zbek tilining hozirgi bosqich hayotida xorijiy so'zlar, qisqartmalar bevosita ko'payyapti, rus tilining ta'siri ham ma'lum darajada saqlangan. Yoshlar orasida uch tilni, hatto, to'rt tilni biladiganlar ko'payib boryapti. Zamonga qarab yuzaga kelgan bu vaziyatda Y.D.Dresheriyevning "Til ma'lum ma'noda ijtimoiy taraqqiyotning barometri bo'lib xizmat qiladi, chunki unda jamiyat hayotidagi asosiy to'lqinlar, o'zgarishlar aks etib turadi" (Ю.Д.Дешериев. Проблема функционального развития языка и задачи социолингвистики, сб."Язык и общество", М.,1968) degan haqqoni fikrini bugungi davrimizda ham yana bir marta esga olamiz. 90-yillardan keyingi va 2000-yillarda tilimizda ro'y bergan o'zgarishlarga nazar solsak, avvalo:

1. Rus tilidan o'zlashgan va o'zbekcha muqobilini topib almashtirish qiyin bo'lgan so'zlar: *dvigatel, shchit, telefon, stol, stul, kiosk, bank, serviz, lotereya, fermer, shofyor, obuna, reyestr, krossvord, forum,*

*tender, filial, konsert, byudjet, sport, tormoz, karavot, mebel, komissiya, transport, direktor, binokl, komanda, genofond, gonorar, protest kabi.* Bunday so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligiga singib, o'z so'zlariga aylanib ketgan.<sup>1</sup> Jonli so'zlashuvda esa *prostoy, pensa, koyka, chepuxa, skorost, podnojka, bratan, obed, stenka* kabi so'zlar. Bu davrda rus tilidan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili so'zları bilan hosil qilgan *gimn/madhiya, garantiya/kafolat, dejur/navbatchi, kliyent/mijoz, remont/ta'mir, kvalifikatsiya/malaka* parallellari amalda.

2. O'zbek tilining o'z so'zları yangi vazifada, yangi ma'no va tushunchalarini ifodalash uchun qo'llanyapti: *shirkat, dallas, kasanachi, sardor, tadbirkor, mulkdor, Soliq qo'mitasi, bojxona, xususiy mulk, taqvim, muhofaza, hudud, xayriya, zakalat, karmon, muassis, inqiroz, ibtido, intiho, devonxona.*

3. O'zbek tiliga xos so'z yasovchi qo'shimchalar 50-80 – yillarda o'z faoliyatini sustlashtirgan bo'lsa, 90-yillardan keyin o'zbekcha atamalarni yaratishda faol va keng qo'llana boshladi. Bularga -k, -q, -ak, -oq; -gich, -kich, -qich, -g'ich; -lik, -(i)sh, -(u)v, -ma, -gir, -(i)m affikslarini ko'rsatish mumkin. Masalan: *moslashtirgich, hokimlik, vazirlik, kuchaytirgich, ulagich, yo'lak, xaridorgir, aylanma, kodlash, davomiylilik, teleko'rsatuv, bozorgir, yarim o'tkazgich, qidirgich, urma (asbob), skanlash, linzalanish, geteroo'tish, krosslash, seansli xabar, mobillik, yoyim, multitanlov, unuvchan, kvantlagich, axborotlashtirish* va boshqalar.

Yangi zamon, yangi davr iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarining O'zbekiston va boshqa mamlakatlar bilan o'zaro aloqasida o'zbek tilining o'z milliy so'zları boshqa mamlakatlarda ham aytيلayotgani va o'zlashtirilayotgani hollarini kuzatish mumkin. Masalan, milliy sport turi bo'lmish kurash hozir jahon sport turlaridan biriga aylanishi munosabati bilan bu sport turiga xos kurash (sportning bu turi shu nom bilan jahonga tanildi), *halol, yonbosh, chala g'irrom* atamalari; milliy o'yin nomi *ko'pkari-ulq;* milliy taomlarimiz, hunarmandchilik buyumlari va matolarga xos: *palov, osh, sumalak, suzma, kishmish, atlas, surma, palos, ayvon, sandiq, taxta, qamish, qozon;* milliy arxitekturaga xos *minora, machit, madrasa, ark* kabi so'zlar boshqa xalqlarning til boyligiga kirib boryapti. Bu bizning mustaqil respublika, o'z tiliga ega xalq sifatida tanilayotganimizga shubhasiz dalolatdir.

Bugunga kelib, 2000-2009 - yillar oraliq'ida ro'y bergan va berayotgan yangi o'zgarishlar sababli rus hamda boshqa xorijiy tillardan o'zlashtirilib, me'yorlik kasb etgan va etayotgan so'zlar hozirgi

<sup>1</sup> Hojiyev A. Termin tantash mezonı, -T.: "Fan", 1997.

zamonning jadal sur'atlarda ilgarilab borayotgani, xoh san'at, xoh qishloq xo'jaligi, xoh iqtisodiyot va tijorat-u, madaniyat, sport, sanoat – jami sohalarda kichik va katta o'zgarishlar ro'y berayotgani, respublikamizning jahon hayoti bilan bog'liqligi kengayayotganidan dalolat berib turibdi. Bu so'zlar matbuot sahifalarida yozilyapti, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarida qatnashyapti, sport musobaqalarida yangrayapti: *modul, podium, kinomaniya, klip, biznes(men), partnyor, ofis, dollar, yevro, prognoz, shou, marketing, protest, monitoring, linza, makiyaj, tatuaj, imij, multimedia, reklama, modernizatsiya, nominatsiya, akvapark, innovatsiya, videokanal, kompyuter, internet, fayl, mikser, xit, lizing, u-shu, fen-shuy, afka, interaktiv, sheyping, sauna, fitobar, plastika, dizayn, noutbuk, futzal* kabi.

Yangi tushunchalar, buyumlar, mahsulotlarning ko'pligi ularni atash uchun so'zlarni qo'shish va juftlash yo'llaridan foydalanishi ham talab qiladi. Masalan: *yakka kurash, avtoulov, tansoqchi, raqobatbardosh, tomyopqich, umum davriy (hisobot, taqdimot), taqdimoma, ogohnoma, fond forum, kabob-haus, infratuzilma, modelyer-dizayner, avtopatrul* kabi.

Atamalarni hosil qilishning uchinchi yo'li hozir tobora keng qo'llanib boryapti. Bu yangilikni qisqacha izohlash yo'li bilan atashdir. Masalan: *raqamlı telefon, raqamlı fotoapparat, jang san'ati sporti, kichik biznes, internet jurnalistikasi, axborot xizmati, elektron hisob raqami, tarqaladigan radioxalaqit, mas'uliyati cheklangan jamiyat, raqamlı imzo, yozuvning vaqt doimisi, elektron karmon va boshqalar*. Tilshunoslikda hozircha bu ifodalash – atashning yangi ko'rinishini baholash masalasi o'z javobini kutyapti.

Adabiy til tizim sifatida mavjud bo'lganligi sababli o'z me'yorlariga ega va bu me'yorlar zamon va davr voqe-a-hodisalarini, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, yashash tarzi belgilariiga ko'ra vaqt-i-vaqt bilan o'zgarib turadi. Adabiy til me'yorlariga mutaxassislar shunday ta'rif beradilar: "Til hodisalaridan adabiy til qoida talablariga mos holda, namunali tarzda foydalanishi, tilning adabiyligini ta'minlovchi vositalarni saralashni belgilovchi me'yor adabiy til (nutq) me'yordir"<sup>1</sup>. Yana: "Adabiy me'yor tilning tovush tizimi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibidagi eng tipik hayotiy va zaruriy elementlarni tanlab olish asosida tashkil topadi. Adabiy me'yor tilning eng yuksak ishlangan, silliqlashgan shakli hisoblanadi"<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Hojiyev A., Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985, 12-bet. Termin tanlash mezoni. –T.: "Fan", 1997.

<sup>2</sup> Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. –T.: ToshDU nashriyoti, 1974, 19-bet.

Adabiy me'yorlarga asoslangan nutqni (adabiy nutqni) yaratish esa tilning butun boyligini, qonun-qoidalari yaxshi bilishni, uning keng imkoniyatlaridan saralab foydalanish darajasidagi mahoratni talab qiladi. Shu jihatdan olganda tilning boyligini, so'zning qudratini o'z ijodida yorqin namoyish qilgan mohir so'z san'atkorlari G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov va Said Ahmad kabi taniqli, ardoqli adiblarimizning asarlariga murojaat qilib, namunalar keltirish mumkin. Masalan, XX asr o'zbek adabiyotida "So'z zargari" deb tanilgan hikoyanavis Abdulla Qahhorning ijodida o'zbek tilining so'z boyligi keng qamrab olinmaydi. So'zlar boshqa yozuvchilarning ijodiga nisbatan miqdoran kam ishlatilgan. Lekin har bir so'z, har bir qo'shimcha nihoyatda ustalik bilan, uzukka avaylab qo'ndirilgan toshday joy-joyiga qo'yilgan, sozlarining eng nozik ma'no qirralari ham hisobga olingan. Nutq nihoyatda ixcham, hech qanday ortiqchalik, beo'rin tafsilot yo'q: "Xotinlar" hikoyasidagi Sobiraxon -- urushning og'ir kunlarida frontga jo'nagan erlarining o'rnini dalada, MTSda bilintirmayotgan ayollardan biri. U qanday qilib traktorchi bo'lgani haqida shunday hikoya qiladi:

"Men sizga aytam, otajon, urushdan ilgari bizdan xomlik o'tgan ekan: uy qilibmiz, ro'zg'or qilibmiz, o'rtog'im katta-katta topib kelganiga, men yaxshi-yaxshi tikkanimga, pishirganimga xursand bo'lib yura beribmiz. Men yetti yillik maktabni bitirganimdan keyin o'rtog'im: "Bas, kamlik qilsa, keyin o'qirsan" dedilar. Ishlamadim ham. Shu bilan "uy qizi" bo'lib qolaverdim. Buning oqibati shu bo'ldiki, urush boshlangandan keyin tengqurlarim joy-joyini topib olganda, men shoshib qoldim. Ularning erlari ko'ngillari o'sib jo'naganda, mening erim o'ksib jo'nadi. O'rtog'im jo'nagan kuni ertasiga kechqurun hovliga Komila xolam keldilar. Hol-ahvol so'radilar. "Qani endi, qizim, qo'lingdan nima ish keladi?" dedilar. Alamimga chidolmay turgan edim, "Uy qizi bo'lib o'tirishdan boshqa hamma ish keladi!" deb javob berdim. Meni MTSga boshlab bordilar. U kishining ukalari brigada mexanigi ekanlar. Shu kishining qo'llarida ikki oy juda qattiq ishladim. O'n besh kunlik sinovdan keyin traktorchi nomini oldim. Tenqurlarim ichida yuzim yorus' bo'ldi".

Asqad Muxtorning esa o'ziga xos ijodiy uslubi bor. U manzaralarni rang-barang bo'yoqlarda chizishga, lirk chekinishlarga moyil. Shuning uchun uning asarlarida tilimizning so'z boyligi to'liqroq, kengroq namoyon bo'ladi, tantanavor va zalvorli, nafis va mayin so'zlar omuxta bo'lib ketadi.

*Bo'tana Amu keng yoyilib, to'lqinsiz, lekin sirli bir ulug'vorlik, haybat bilan, yuzadan qaraganda juda sekin, ammo kuchli, teran oqim*

*bilan siljib borardi. Quyosh tikkaga ko'tarilganda, ikki qirg'oqda oltinlanib sarg'aya boshlagan chakalaklar, kuz shamolini pisand qilmaydigan quyuq, qoramitir-yashil qamish o'rmonlari, tinmay nurab yotgan qumloq jarliklar suzib o'ta boshladi. Amu – go'zal, ammo sehrgar, jodugar daryo. O'zani bo'sh, qirg'oqlari tayinsiz...*

Asqad Muxtor, "Chinor", 143-bet.

Ikkala adib ham – yirik so'z ustasi, shu sabab ikkovining asarlari – adabiy nutqning eng yaxshi namunalaridan hisoblanadi: to'g'ri tuzilgan, to'g'ri yozilgan va, shu bilan birga, ko'rkam, namunali adabiy nutqdir. Ikkala adibning ham ona tilini ardoqlashi, undan mahorat bilan foydalanayotgani el ularning asarlarini sevib o'qishida ko'rinib turibdi. Faqat uslubda farq bor. Abdulla Qahhor so'zlarni chertib, jaranglatib tanlaydi, u - siqiq shaklda keng mazmun berish ustasi. Asqad Muxtor esa tasavvuringiz, o'y-xayollariningizni keng manzaralarning rangin tasviriga tortadi va sizni boy hissiyotga undaydi.

Til – o'zgaruvchan ijtimoiy hodisa, uning me'yordari ham adabiy barqaror bo'lmay, tilning (adabiy tilning) taraqqiyoti bilan o'zgarib boradi. XV asrda leksik norma bo'lgan *chug'z* (boyqush), *afzun* (yuqori), *ranj* (mehnat, mashaqqat), *safha* (sahifa), *oshyon* (makon), *ulus* (xalq), *cherik* (qo'shin) so'zлari; XVIII-XIX asrga xos *avbosh* (bebosh), *navkar* (saroy xizmatkori, askar), *adlu karam* (adolat va yaxshilik), *or etmoq* (hijolat bo'lmoq), *mudom* (doim), *hayf* (afsus), *g'ani* (boy), *rasta* (do'kon), *aqcha* (pul), *qo'rg'oncha* kabi so'zlar hozirgi kun o'zbek tili leksikasidan (lug'at boyligidan) chiqib ketgan. Klassik adabiyot tilida (XIX asrgacha) otlardagi ko'plik ma'nosining arabcha ifodalanishi shakl bo'lgan bo'lsa (avqot – vaqtlar, qulub – qalblar, tavorix – tarixlar, ulamo – olimlar, fuzalo - fozillar), XIX srning ikkinchi yarmidan boshlab arabcha ko'plik shakli ko'plik ma'nosini yo'qotib, birlik uchun ham qo'llanishi shakl tusiga kirgan edi, endi ko'pchilik ifodasi sifatida bu so'zlar – *lar* qo'shimchasini qabul qila boshlagan. Masalan:

Demangiz, ahboblar, gul bulbuli go'yoniki,  
Davlati vasli tikonda, hajri ul shaydoniki  
Zavqiy, "Zamona kimniki".

Keyingi 10-15 yil orasida tilimizda sintaktik jihatdan gaplarning qurilishi murakkablashdi, vogelikka turli munosabatni ifodalovchi murakkablashgan sodda gaplar nutqda tez-tez uchrayapti. Bir necha fikrni

ifodalovchi qo'shma gaplar, inversiya (gap bo'laklarining o'rinn al mashishi) hozir prozada ham kuchayib bormoqda, qaratqich va tushum kelishiklariga xos –ning va –ni qo'shimchalarining tushib qolishi (ayniqsa, gazeta nutqida), sodda gaplarda kesimning majhul nisbat shaklida kelishi (qarab chiqildi, topshirildi, yuborilyapti, bajariladi) kabi holatlar ko'proq uchrayapti. Bular adabiy tilga xos lug'aviy-uslubiy me'yorlar bilan bir qatorda grammatik me'yordaring ham o'zgaruvchanligidan dalolat beradi.

"Yangilik"ka intilib adabiy me'yordan chetga chiqishlar, til vositalarini e'tiborsizlik bilan qo'llash hollari ham ba'zan uchrab turadi. Masalan, matbuotda ham, radioeshittirishlarda ham uchrab turadigan "Ta'mirlash ustaxonalarida ko'plab texnikalarga xizmat ko'rsatilmoqda" jumlasida texnika so'ziga –lar qo'shimchasi mantiqan noto'g'ri qo'shilgan. "Texnika" so'zining o'zi mexanizm, apparat, moslama, mashina kabi mehnat qurollarining umumlashma nomi. Yuqoridagi misolda esa "Texnika" so'zining ma'nosi zo'raki toraytirilib, "mashina", "mexanizm" so'zlariga tenglashtirilgan. Yoki gazetadagi "Mahsulot sifatiga – davlat e'tirofi" rubrikada sanoat mahsulotlarini davlat qabul komissiyasidan o'tkazish ishlariga tayyorgarlik xabarları berib boriladi. "E'tirof" so'zi "Biror gap, fikr, ish-harakat va shu kabilarni to'g'ri haqiqat deb bilish, qabul qilish, ularni tan olish, iqror bo'lganlik va sh. k. haqidagi tasdiq"ni (qarang: "O'zbek tilining izohli lug'ati", M., 1981, II jild, 459-bet) bildiradi. E'tirof etish – tasdiqlash ekan, demak, mahsulot sifatli yoki sifatsizligidan qat'i nazar, o'sha holida uni tasdiqlamoq ma'nosini bildiradi. Davlat qabulidan esa faqat sifatli mahsulotlar o'tadi. Demak, "e'tirof" so'zi bu o'rinda o'zini oqlamaydi.

"Tola chiqimiga ko'ra yangi-yangi navlarni yetishtirish – bizning vazifamiz" gapida "chiqim" so'zini olish kerakmi yoki "chiqish" so'zi to'g'riq bo'ladimi? Bundan tashqari sarf, xarajat ma'nosida keladigan "chiqim" so'zi ham bor. Shu gapni aytgan g'o'za seksiyasi bo'yicha mutaxassis (2009-yil 23-martdag'i "Bir kun" ko'rsatuvida) "chiqim" so'zini tanladi, demak, "chiqish" so'ziga nisbatan "chiqim so'zini hozirgi kun uchun me'yoriy deb yondashdi."

Keyingi paytlarda "ustuvor" so'zining faol qo'llanayotganini kuzatish mumkin. "Ustuvor" so'zi "Izohli lug'at"da shunday izohlangan:<sup>1</sup> (f-t) esk.k. Mahkam, mustahkam, buzilmas. Ustuvor turmoq misol qilib keltirilgan. Hozirgi kunda bu so'z asosan aniqlovchilik vazifasida keladi. Misollarni solishtiring:

<sup>1</sup> "Ўзбек тилининг изоҳли луғати", II том, М., 1981, 284-bet.

1. Ushbu masalalar davlatimiz rahbarining Vazirlar Mahkamasi majlisidagi 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan ma'rurasida qayd etildi ("Xalq so'zi" gazetasi, 2009-yil 2-may).

2. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash adliya organlarining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi ("Mohiyat" gazetasi, 2009-yil 1-may).

3. Ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirishga ustuvor ahamiyat berish tufayli o'tgan yili 169ta kollej va 23ta akademik litsey qurildi ("Mohiyat" gazetasi, 2009-yil 1-may).

4. Qonun ustuvorligini ta'minlash huquqiy madaniyatni yuksaltirishning muhim omili ("Inson va qonun" gazetasi, 2009-yil 21-aprel).

Misollar bundan 30 yillar oldin eskirgan, kitobiy uslubga xos deb qaralgan ustuvor so'zining faol qo'llanish sababli ma'no doirasi kengayishi bilan barobar mundarijasi ham o'zgarishdaligini ko'rsatib turibdi. Bu so'zning, demak, avvalgi me'yoriy holati va hozirgisi orasidagi farqni yaqqol kuzatish mumkin. Me'yorlar mana shunday tug'iladi.

Adabiy til me'yorlari tilning umumiy taraqqiyotiga qarab o'zgaruvchan bo'ladi. Lekin ma'lum bir davr mobaynida adabiy me'yorlar shu til egalari uchun yagona va barqarordir. Asosiy lug'at fondini tashkil qiluvchi so'zlar, tilning qator grammatik hodisalari: egalik va kelishik qo'shimchalari, fe'l mayllari, fe'l nisbatlari, shaxs-son qo'shimchalari va boshqalar tilda qat'iy o'rashgan, yillar sinovidan o'tgan normativ hodisalardir.

Adabiy til va uning me'yorlari haqidagi gaplar nutq madaniyati masalasiga bevosita borib taqaladi. Nutq madaniyati adabiy tilning me'yorlarini puxta egallash va ulardan nutqda foydalanish layoqati darajasi demakdir. Bu layoqat darajasi har kimda har xil namoyon bo'ladi (uning kasb-kori, ma'lumoti, madaniyligi darajasiga qarab). Nutq madaniyati keng tushuncha bo'lib, shaxsning atrofdagilarga muomalasi, madaniyati ham, yozma va og'zaki nutqining barcha ko'rinishlari ham shu tushuncha doirasiga kiradi.

Nutq madaniyati yuqori bo'lgan kishi, birinchidan, o'z nutqini to'g'ri, adabiy til me'yorlariga muvofiq tuzadi, ikkinchidan, til vositalaridan eng muvofiq, eng ko'rkmalarini tanlab olib, nutqining ham to'g'ri, ham jozibali bo'lishiga erishadi.

Nutqning ixchamligi, mazmundorligi ham katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda ikki buyuk shaxs – genial san'atkor Charli Chaplinga genial olim

Albert Eynshteynning xati va u xatning javobini keltiramiz, chunki bu ikki xat nutq madaniyatining yuqorida ko'rsatilgan hamma talablariga to'la javob beradi:

Aytishlaricha, Charli Chaplin kinolarini zo'r qiziqish bilan ko'rgan Albert Eynshteyn iste'dodli artistga xat orqali o'z minnatdorchiligini yo'llagan:

"*Janob Chaplin, Siz yaratgan filmlar juda ajoyib. O'ylaymanki, ularni Yer kurrasning hamma joyida tushunishadi va Siz, albatta, mashhur bo'lasiz!*"

Chaplin esa unga quyidagicha javob xati yuborgan ekan:

"*Men to'g'rimda yaxshi fikrlar aytganingiz uchun Sizdan minnatdorman. Biroq men ham o'z navbatida boshqa bir narsadan hayratdaman. Sizning "Nisbiylik nazariyangiz"ni Yer yuzida hech kim tushunmaydi-yu, lekin, shunga qaramay, Siz ham mashhursiz!.*"

Lekin hozircha og'zaki va yozma adabiy nutqning me'yorlari mukammal ishlaniib, tugal hal qilingan deyish qiyin. O'zbek orfografiysi, o'zbek orfoepiyasida o'z yechimini kutayotgan qator masalalar bor. Lug'atlarda hali ham lotincha imlosi bo'yicha noaniqliklar, lug'atlarda so'zlarning ikki xil berilishi uchraydi (ayniqsa, qo'shma so'zlar). Jamoat joylaridagi turli chaqiriqlar, murojaatlar, kino va teatrler afishalari, turli korxona va idoralarning nomlarini yozishda, ism-familiyalarning yozilishidagi xilma-xillik, chalasavodlik hali bartaraf qilinmagan. Ba'zan, hatto, o'quv darsliklari, gazeta va jurnallarimiz, teleekranda ham turli orfografik va punktuatsion xatolarni, nutqiy g'alizliklarni uchratib qolamiz. Bularning hammasi hali nutq madaniyatini yuqori ko'tarishda talay ishlar borligini ko'rsatib turibdi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy til me'yorlari deganda nimani tushunasiz?
2. Adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlariiga misollar keltiring. Ular og'zaki nutqda ko'proq uchraydimi yo yozma nutqda?
3. Adabiy til me'yorlarining nutq madaniyatiga ta'sirini tushuntirib bering.
4. Quyidagi misollardagi qaysi o'rnlarda adabiy nutq me'yorining buzilganligi e'tiboringizni tortyapti?
  - a) ayni paytda viloyat adliya boshqarmasi, huquq tartibot organlari bilan hamkorlikda qonun hujjalari yuritish yuzasidan turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

b) ba'zi hollarda bir oilada yashayotgan er-xotinlar rasmiy nikohdan o'tmaslik holatlari keyinchalik bola huquqlariga daxl qiladi.

c) odam savdosi insonning yuksak e'zozga loyiq bo'lgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi, shaxsiy daxlsizligiga tahdid soluvchi jamiyatdagi salbiy illatlardan biridir.

(Misollar "Inson va qonun" gazetasining 2009-yil 7-aprel sonidan olingan).

## NUTQ USTIDA ISHLASH

Nutq, demak, ham to'g'ri tuzilgan, ham ko'rkmak, chiroysi bo'lishi kerak ekan, bunga qanday erishish mumkin, nimalarga e'tibor berish kerak?

**So'z tanlash.** Nutqda so'z tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar sirasidan ajratib olish katta ahamiyatga ega. So'zlar nutqning turiga, u nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlanadi: publitsistik nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy nutq uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlar olinadi. Badiiy nutqning nasr va nazm ko'rinishlaridagi til xususiyatlari ham bir-biridan birmuncha farq qiladi. Tanlangan so'z adabiy nutqqa xos, nutq madaniyati me'yordi doirasida bo'lishi lozim, chunki har qanday nutq – tarbiyalovchi omil, u eshituvchi va o'quvchilarda to'g'ri so'zlash va to'g'ri yozish ko'nikmalarini, savodxonlikni tarbiyalaydi.

Tilning eng katta boyliklaridan biri sinonimlar – ma'nosi yaqin yoki o'xshash so'zlardir.

Sinonim so'zlar orasidan ham matn uchun eng muvofig'ini tanlab olish ancha mas'uliyatlari ish. Chunki har bir so'z o'zining ma'nodoshidan – sinonimidan – ham nozik ma'no qirralari, "stilistik bo'yog'i" bilan ajralib turadi. Bu farqlarni ilg'ab olish, sezish uchun ularning qo'llanishini bir-biriga qiyoslab, solishtirib ko'rish kerak bo'ladi. Masalan: *qobiliyat, layoqat, iste'dod, talant, salohiyat, uquv* so'zлari sinonim so'zlar bo'lib, o'qish-o'rganish, bilim kuchini bildiradi. "Layoqat" so'zida uquv ko'proq kuchga ega, "iste'dod" "ijodkorlik kuchi", shuningdek, "yaratuvchilik kuchi" ma'nosida qo'llanadi, "talant" so'zida "mahorat, ishtiyoq" bo'yog'i ham bor, "salohiyat" so'zi ko'proq aql-ong bilan bog'liq yuqori qobiliyat, iqtidor darajasini bildiradi. Shunday ekan, ularning har biri har xil nutq sharoitida keladi, birining o'mida ikkinchisini qo'llash fikrning aniq ifodasini berishi qiyin.

"Magistral yo'lning transport o'tkazish salohiyati yuqoriligi ko'rsatib o'tildi" misoli "salohiyat" so'zining noto'g'ri olinganiga ishontiradi.

"Qo'shiq" va "ashula" so'zлari bir tushunchani – she'rni kuyga solib yaratilgan vokal asarni bildiradi. Ba'zan ularni almashtirib qo'llash mumkin, lekin hamma vaqt emas. Masalan, "Ashula va raqs" ansamblı, "katta ashula", "maqom ashulalari" birikmalarida "ashula" so'zini "qo'shiq" bilan almashtirish, aksincha, "Qo'shiqchi shoir", "Qo'shiq bizga

hamisha hamroh”, “Hayot qo’shilg‘i”, “Umr qo’shilg‘i” kabi qo’llanishlarda “qo’shiq” so’zi o’rniga “ashula”ni qo’yish mushkul.

“Dolzarb mavzu” va “aktual tema” deymiz. “Dolzarb” va “aktual” hamda “mavzu” va “tema” so’zlarini dublet so’zlar, ya’ni bir tushunchani ifodalaydigan so’zlar. Ularning farqi nutqning qaysi turida ko’proq uchrashi hamda faol-nofaolligida ko’rinadi.

“Olam”, “dunyo” va “jahon” so’zlarini olaylik. Ular ham sinonim so’zlar. Biroq qiyoslang: “Olamga sayohat” “Jahonga yoki dunyoga sayohat” emas, “Dunyo voqealari” “Olam voqealari” emas, “Jahonga tinchlik!”ni “Olamga tinchlik” bilan almashtirib bo’lmaydi. Bir gazetada “Koinot – munavvar olam” deb bir maqolaga sarlavha qo’yilgan. Undagi “munavvar” so’zini “yorug” va “charog’on” so’zlar bilan, “olam” so’zini esa “janon”, “dunyo” so’zlaridan biri bilan almashtirib ko’ring: “Koinot – yorug” “jahon” yoki “Koinot – charog’on dunyo” deyish “koinot” so’zi uchun to’g’ri kelmaydi. Koinot – samoviy bo’shiq, unda inson yashamaydi. “Jahon” va “dunyo” so’zlarini inson, tirik mavjudot bilan bog’lanadi. Shunga ko’ra “koinot” so’zi “olam” so’zi bilan uyg’unlashadi. “Yorug”, “charog’on”, “munavvar” so’zlaridan esa “koinot”ga hamohang tantanali “munavvar” so’zi tanlangan.

Shu tariqa har bir so’zning nozik ma’no xususiyatlari nutq sharoitida, atrofidagi boshqa so’zlar bilan munosabatda ochiladi. So’z tanlash, ularni boshqa so’zlar bilan bog’lab, qiyoslab ko’rish qunt bilan, diqqat bilan ishlashni talab qiladi. Ko’ngildagidek, puxta ishlangan nutq maqsadga to’la javob beradi, ta’sirchan va yoqimli bo’ladi.

Ba’zan pala-partish, o’ylamay aytilgan birligina so’z yoki ibora butun nutqning ta’sir kuchini, salmog’ini pasaytirishi mumkin. Masalan, respublika televideniyesidan berilayotgan ko’rsatuvlardan birida muxbir mas’ul shaxslardan biridan intervyu olayotgan edi. U kishi salmoqli, vazmin so’zlab turib, korxonani kelib ko’rgan rahbar lavozimdagи bir odamning “suhbatlarini olgани”ni aytib qoldi. “Suhbatini olmoq” iborasi “ulfatchilik”ka doir bo’lib, mas’ul rahbarning rasmiy, salobatli so’zları orasida noo’rinligi darhol sezildi. Buni uning o’zi ham payqab o’ng’aysizlandi. Lekin adabiy nutqqa xos bo’limgan jargon ibora aytib bo’lingan, nutqning madaniylik maromi buzilgan edi.

Tan olish kerak, eng so’zga chechan kishilar ham ba’zan adabiy tildan kerakli so’zni topolmay qolishlari mumkin. Shunday so’zlar bor-u, lekin ular oddiy so’zlashuv nutqiga, shevalarga xos. Bunday paytlarda, agar bu so’zlar nutqning umumiy adabiy-madaniy ruhiga singishib ketsa, me’yorni buzmasa, ulardan o’rni bilan foydalanish mumkin. Masalan:

“Rassomlar ishlab chiqarish mavzuiga qo’l urganlarida ko’pincha konstruksiyalar va shakllarni *qalastirib tashlaydilar*. Yorqin taqdirlar, o’tmis va hozirgi zamonning qahramonliklari rassomlar o’z iste’dodlarini to’la-to’kis ochishlariga imkon beruvchi *badastir* materiallar emasmi?” Yoki: “Korxonada ishchilarning kayfiyati zo’r. Kanar orollari ustidan o’tgan bo’ron dastlabki chamalarga ko’ra 12 kishining *yostig’ini quritdi*. Bu yerlarda o’nlab qishloqlar tom ma’noda yer yuzidan *supurilib ketdi*. Yuqorida aytib o’tgan misollarimizdan birida “Paxta tolasining chiqimimi yoki chiqishi” deyilganda ham shevaga xos so’zlashuvga murojaat qilingan.

Vaqt o’tishi bilan so’zlearning bir qismi eskirib, nofaol qatlama o’tadi. Lekin bu o’sha so’zlar birato’la qo’llanishdan chiqib ketdi degan gap emas. Nutq sharoitiga qarab, agar o’rinli bo’lsa, unday so’zlardan ham foydalanish nutqning rang-barang bo’lishiga yordam beradi: “Afsuski, egnida *xorijiy* kiyimni ko’z-ko’z qilib, qo’lidagi magnitofonda *chet el* muzikasini varanglatib yuradigan yoshlari orasida ism-familiyasini to’g’ri yoza olmaydiganlar ham uchraydi”. Bu gapda “chet el” va “xorijiy” so’zlarini sinonim so’zlar, ma’nolari deyarli bir. Biroq ikkalasining davri orasida farq bor. “Ko’z-ko’z qilib”, “varanglatib” so’zlarini so’zlashuvga xos. Lekin jumla to’g’ri, chiroyli tuzilgan, so’zlashuv nutqiga xos so’zlar ham, eskrayotgan “chet el” va hozirda faol “xorijiy” so’zlarini aniq maqsad bilan o’z o’rnida ishlatilgan.

Tilimiz boy, so’zlar ko’p, gap faqat ulardan keraklisini tanlash mahoratida qolgan. Mahorat esa osongina o’zidan-o’zi kelmaydi.

**Qo’shimchalar va yordamchi so’zlarda ham sir ko’p.** Nutqni namunali tuzish so’zlarni tanlab, ajratib olishdan so’ng ularni bir-biri bilan bog’lab, fikr ifodasining eng qulay va mukammal holatiga kiritish – gap tuzish – mas’uliyatini ham qo’yadi. Adabiy-madaniy nutqning bu masalada ham o’z talablari, grammatik me’yorlari bor. Grammatik me’yorlar tilning grammatic qonun-qoidalariga asoslanadi. Tilning grammatic qonuniyatları esa leksikaga – tilning so’z boyligiga – nisbatan barqarordir. So’zlar davr ruhini aks ettiradi, shuning uchun o’zgaruvchandir, grammatica esa yillar o’tgan sayin takomillashib, rivojlanib boradi, undagi o’zgarishlar sekin kechadi.

Lug’at boyligidagi o’zgarishlar ham, grammatic me’yordagi o’zgarishlar ham eng avval gazeta-jurnallar nutqida ko’rinadi. Bir shakl o’rmini boshqasi egallashi, ikki qo’shimchaning birlashib, bittaga aylanishi (-moqda, -vchi, -uvchi, -digan, -dagi, -gacha) yoki, aksincha, bir qo’shimchaning fonetik variantlari ikki mustaqil qo’shimchaga aylanib

ketishi (-guncha va -gancha, -lik va -liq, -ur va -ar) kabi hodisalar avvalo matbuot, radio nutqida boshlanib, keyin ommalashdi va boshqa nutq turlarida ham qo'llana boshladi. Bugungi kunga kelib bu hodisalar grammatik me'yor bo'lib qoldi.

Grammatik va leksik-grammatik shakllarning qo'llanishidagi "yangilik" ham individual uslubdan boshlanadi, ya'ni biron muxbir yoki yozuvchi u yoki bu qo'shimchani odatdan tashqari sharoitda ishlatadi. Agar bu "tajriba" muvaffaqiyatlchi qisqa, umum qo'llanishga kiradi. Muvaffaqiyatlchi qismagan "eksperiment"lar esa o'z-o'zidan qolib ketadi. Masalan: "novator" so'zi ot turkumiga xos so'z bo'lib, ba'zan sifat kabi ham qo'llangan: *ishlab chiqarish novatorlari va novator ishchi-yoshlar*. Lekin 80-90 – yillar orasida "novator" so'zidan –ona qo'shimchasi yordamida "novatorona" ravishi yasalgani qayd etilgan. Masalan: "bu hujjatlar bilimlar xazinasiga qo'shilgan yangi, novatorona buyuk hissa bo'ldi", "Iste'dodli ijodkorlarning mavzu, mazmun, shakl va janrdagi dadil novatorona izlanishlari..." ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1986, 5-dekabr).

-cha qo'shimchasi kichraytirish, ba'zan erkalash ma'nosini beradi. Bu qo'shimchani faqat kichraytirib bo'ladigan jism, buyum nomiga qo'shish mumkin. Lekin mana bu misolda kichraytish emas, ingichkalash ma'nosini ko'zda tutilishi kerak edi, shuning uchun -cha qo'shimchasining qo'shilishi erish eshitiladi: *suвлar trubachalardan ingichka bo'lib chiqadiyu, borgan sari yoyilib ketadi* (M.Hazratqulov).

-zor qo'shimchasi biron o'simlik, daraxt, buta ko'p o'sadigan joy ma'nosini ifodalaydi. Lekin uning "fontan" so'ziga qo'shilishi erish ko'rindi: "Sa'dulla fontanzor orasida to'xtab, bir zum miriqib dam oldi" (M.Hazratqulov).

-xo'r qo'shimchasi asli "yeuyuchi, ichuvchi" ma'nosini bildiruvchi so'zlarni yasaydi: *oshxo'r, araqxo'r, hasharotxo'r, haromxo'r, odamxo'r* kabi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan g'amxo'r, sudxo'r so'zları ham bor. Yaqinda esa "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida -xo'r qo'shimchasi bilan yasalgan yangi – "tayyoxo'rlik" so'zini uchratdik.

"Yo'l harakati xavfsizligi" va "Yong'in xavfsizligi" turg'un birikmalarini solishtiraylik. Birinchisida xavfsizlik choralar yo'l harakatiga qaratilishi tushunarli. Ikkinchisida esa xavfsizlik choralar yong'inga emas, aksinca, undan atrofdagilarga qaratilishi kerak. Shunday ekan, bu birikma "Yong'indan xavfsizlik" shaklida qo'llansa, to'g'ri bo'ladi.

Tojik tilidan o'zlashgan -gir qo'shimchasi "oluvchi" ma'nosili so'zlarni yasaydi: jahongir, olamgir kabi. Ya'ni: jahonni oluvchi, olamni oluvchi. Lekin hozir xaridorgir, bozorgir so'zları ham yasalgan va ular boshqacha izohlanadi: bozor oluvchi, xaridor oluvchi. Ya'ni: bozorbop, xaridorbop deyilmoqchi.

Grammatik me'yorlarga bilib-bilmay yondashish yoki e'tiborsizlik esa nutqning ta'sirchanligini kamaytiradi, g'aliz, mujmal, chaynalgan jumlalarni keltirib chiqaradi.

Ba'zi misollarni keltiramiz:

"Yangi o'zlashtirilgan yerlarni foydalanishga "yaxshi" baho bilan topshirilmoqda", - "yerlarni" emas, "yerlar" bo'lishi kerak, chunki: 1) gapda bu so'z ega vazifasini bajaryapti, ega esa hamma vaqt bosh kelishik shaklida bo'ladi; 2) majhul nisbat shaklidagi (-il qo'shimchali) fe'l 30-40 yillar ilgari tushum kelishigidagi to'ldiruvchini boshqarar edi va bu holat o'sha davr uchun norma edi. Hozir majhul nisbat shaklidagi fe'lning bosh kelishik shaklidagi ega bilan munosabatga kirishuvi normaga aylangan.

"*Jamila Mahkamova har bir sigirdan sog'ib olinadigan sut miqdorini bir kilogramma oshirishga ahd qildi*" jumlasida "bir kilogramma emas", "bir kilogramm" bo'lishi to'g'ri. "3 kilogramma oshirishga", "5 foizga ko'paytirishga" kabi ifodalar rus tilidan g'aliz tarjimaning oqibati bo'lib, o'zbek tilining grammatik qurilishiga mos emas.

"O'smirlar hayotiga, ularning hayotda o'z o'mini topish, mehnatdagi izlanishlarini ko'rsatuvchi asarlar deyarli yozilmayapti". Bu gapda asarlarning qanday bo'lishi lozimligini tasvirlovchi birikmali aniqlovchilar tegishli grammatik vositalar bilan yetarli "jihozlanmagan". Jumla shunday bo'lishi kerak edi: "O'smirlar hayotiga oid, ularning hayotda o'z o'mini topishi, mehnatdagi izlanishlarini ko'rsatuvchi..."

"Yil boshidan beri 15 mingga yaqin yong'inlar sodir bo'ldi". "60tacha o'quvchilar hasharda faol qatnashdilar." Misollarida aniq miqdorni son bilan ifodalovchi aniqlovchining yonidagi aniqlanmishda – lar ko'plik qo'shimchasi ortiqcha.

So'zlarni va qo'shimchalarni tanlash bilan nutqning adabiy til me'yorlariga asoslangan, to'g'ri nutq bo'lishi ta'minlanadi. Lekin mukammal ishlangan nutq to'g'ri bo'lishi bilan birga ta'sirchan, jozibali bo'lishi ham kerak. Chunki uning yetakchi maqsadi ommaga ta'sir qilish, tashviqot va targ'ibot yurgizish, ma'naviy go'zallikka, jasoratli va dadil harakatlarga undashdir. Nutqni ta'sirchan va boy qiluvchi turli omillar (so'zning ko'chma ma'nolari, frazeologik iboralar, maql va matallar...)

tilda bor. Nutq tilning ulkan boyligini, keng imkoniyatlarini, ko'rg'i va jozibasini to'laligicha namoyon qilish maydonidir. Quyida nutqning ta'sirchanligiga, teran his-tuyg'ular ifodalashiga xizmat qiladigan omillardan ikkitasi ustida to'xtalib o'tamiz.

**Inversiya.** Gapda gap bo'laklarining tartibini aniq bir maqsad bilan (stilik maqsad) o'zgartirish, o'rinalarini almashtirish inversiya hodisasini tashkil qiladi. Masalan, "Vatan suyanadi mard o'g'lonlarga" yoki "Qudratlidur farzandlari sog'lom yurt" ("Vatanparvar" gaz., 2008-y., 2-may);

Inversiya, asosan, she'riyatda uchraydi, buning sabablari bor, albatta.

**Ayb emas, toplanib do'stu yor bilan**

**Kechgan kunlaringni aylab qo'ysang yod.**

**Nazar sol yurtingga iftixor bilan,**

**Ona O'zbekiston shunchalar obod.**

A.Oripov

Bu to'rtlikdagi har bir gap va uning bo'laklarini tartibi bilan joylashtirsak, mazmun oydinlashgandek bo'ladi, lekin uni she'r deb bo'lmay qoladi: she'riyatga xos sehr yo'qoladi. Kechgan kunlaringni do'stu yor bilan to'planib, yod aylab qo'ysang, ayb emas. Yurtingga iftixor bilan nazar sol, ona O'zbekiston shunchalar obod.

Badiiy adabiyotning proza janriga xos nutqda, ayniqla, ma'ruzachi, targ'ibotchi nutqida va boshqa xil nutq turlarida inversiya o'quvchilar va tinglovchilarga uning ta'sir kuchini oshirish hamda xitob, taajjub, kuchli buyruq kabi his-tuyg'ularni ifodalash uchun qo'llanadi. Yana Abdulla Qahhor asarlariga murojaat qilamiz :

"Nechuk ekanki, Saida raisning taklifini ma'qul ko'rmaydi-yu, majlis ahli uning ra'yiga yuradi!" ("Sinchalak"). – "Nechuk ekanki" ikki gapning oralig'ida bo'lishi kerak edi, lekin muallif uni gapning boshlanishida joylashtirgan.

"- Voy sho'rim !... dedi Mastura, jindakkina joningizga-ya ! Shu jussangizga uchta dard sig'dimi?

**Bo'ldi kulgi ! Ayniqla Mirrahimov zavq qilib kului** ("Ming bir jon").

Bu misolda "Bo'ldi kulgi" birikmasi "kulgi bo'ldi" tarzida aytilsa, butunlay boshqa ma'no – "masxara bo'ldi" ma'nosi chiqadi.

"Taraqqiyot tez sur'atlar bilan rivojlanayotganini, fan-teknika revolutsiyasi butun iqtisodimiz yuksalishining asosiy omili ekanligini nahotki muallif bilmasa?" ("Sharq yulduzi" jurnalidan).

"Muallif" so'zi bilan ifodalangan gapning egasi gapni boshlab berishi lozim edi. Lekin gapning maqsadi unda xira chiqib qolardi, shuning uchun bu yerda gapning bo'laklari tartibi o'zgartirilgan, ega emas, yoyiq to'ldiruvchi gapni boshlab beryapti.

"Molparastlik, ma'naviy tubanlik, axloqiy mas'uliyatsizlik – yozuvchi o'z diqqat-e'tibori markaziga shu masalalarni qo'ymoqchi bo'lgan". Gap "Yozuvchi o'z diqqat-e'tibori markaziga molparastlik, ma'naviy tubanlik, axloqiy mas'uliyatsizlik masalalarini qo'ymoqchi bo'lgan" tarzidagi normativ holatda tuzilganda, unda ifodalanmoqchi bo'lgan fikr ta'sirchanligi kamayardi. Bo'rttirish, ajratib ko'rsatish va diqqatni tortish uchun "Molparastlik, ma'naviy tubanlik, axloqiy mas'uliyatsizlik" so'zleri gapni boshlab bergan, ular kuchli ta'kid urg'usi bilan aytilishi uchun imkoniyat yaratilgan, bundan tashqari ular gapda "shu" so'zi bilan yana bir marta ta'kidlangan.

Muhim so'zlarni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish uchun inversiyadan foydalanish, ayniqla, reklamalarda keng ko'lama va tez-tez uchraydi, chunki reklamadan maqsad ham ayni shu yangi mahsulot turi, yangi ixtiro, turmushga tatbiq etilayotgan yangi jihozni tanishtirish, uni taysiflash va ta'riflash, mijozlarni chaqirishdir. Reklamalarning o'zi bizda hali yangilik. Ular hozir matbuot sahifalaridan ham, tele va radio dasturlardan ham keng o'rin olmoqda. Reklama ham tildan foydalanish hosilasi bo'lgani uchun hozirgi zamonning ijtimoiy-iqtisodiy ifodasi va voqeasi. Buni tushunamiz. Reklama teledasturlarda berilganida u qisqaroq bo'ladi va tasvirlash kadrlari bilan to'ldiriladi. Masalan: "To'nlar muborak. Faqat bizda. Faqat bizning kanalda" reklamasi Obid Asomov boshchiligidagi qiziqchilar guruhi ko'rsatuvini reklama qiladi va shu ko'rsatuvning tanlangan tasviriy kadrlari beriladi. Yoki: "Shifokorlarning ta'kidlashlaricha, kasalliklar asab bilan bog'liq. Biopassit. Asablaringizni asrang". Bu reklama biopassit dori mahsulotining sotuvdagagi belgilari va shakli bilan tasviran tanishtiriladi. "Bilayn. Hayotning yorqin tarafida bo'l" reklamasi ham bu aloqa liniyasining o'z tegishli ramzi shaklini tasvirda ko'rsatish bilan bir paytda efirga uzatiladi. Albatta, televideniyening imkoniyatlari katta va u reklamalarning muvaffaqiyatlari chiqishi, ta'sirchanligini ko'p jihatdan ta'minlaydi.

Matbuot orqali beriladigan reklamalarda bunday imkoniyat yo'q. Shuning uchun reklamalarni berishda matbuot ham o'z imkoniyatlaridan foydalanadi: 1) matnni qisqartiradi va fotorasm, fototasvirdan foydalanadi; 2) fototasvirsiz holatlarda matn batafsil beriladi. Unda adabiy-madaniy nutq me'yorlariga e'tibor beriladi; fikrni aniq va ravshan ifodalash,

gaplarni murakkablashtirmay, soda va tushunarli tuzish reklama beruvchining diqqat markazida bo‘ladi.

Lekin, yuqorida aytiganidek, reklamalar bizning tilimizda hali yangilik. Hozircha reklamalar matnining tuzilishida, ularda til vositalaridan foydalanishda bugungi kun o‘zbek adabiy tili me’yorlariga, ommabop nutqning barqarorlashgan jihatlariga uyg‘unlashmagan tomonlar bor. Tilagimiz: reklamalar zarur ekan, ularning tuzilishi, berilishi, hatto o‘qilishiga ham o‘zbekona lutf, sharqona mayin ohang qo’shilsa.

Badiiy asarlarda va kundalik matbuot sahifalarida bir gap doirasidagi so‘zlarning emas, matndagi gaplarning berilish tartibida ham keyingi 10-15 yil ichida yangicha yondashish: qo’shma gap qismlarining (sodda gaplarning) o‘rnini almashtirish, gaplarni qisqa-qisqa shaklda uzib, bo‘laklab berish, turli his-hayajon vositalari – undovlar, undalmalar, yuklamalardan unumli foydalanish, undov, so‘roq, ko‘p nuqta, tire belgilarini yozma nutqda keng qo’llash va og‘zaki ma’ruzada ularga rioya qilgan holda ifodalash, o‘qish nutqning emotsiyonalligi va ekspressivligini kuchaytiradi, albatta. Bir tomondan, bu harakat nutqni rang-barang qiladi, o‘quvchida ham shunga mos boy his-tuyg‘ular uyg‘otadi, uni zeriktirmaydi. Lekin til vosita va imkoniyatlaridan bu xilda foydalanish tamomila ijobji hodisa ham emas, chunki u oqibatda adabiy nutqning an’anaga aylanib ketgan normalarini, nutq maromini buzishi, tilning sintaktik qurilishiga va to‘g‘ri rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

**Gap bo‘laklarining takrori.** Tilda takrorning bir necha xil ko‘rinishi bor. *Gul-gul, qator-qator, qop-qop, yo‘l-yo‘l* kabi takrorlar so‘zning takrorlanish shaklidir. Bunda so‘zning ma’nosি bir oz o‘zgarishi ham, jiddiy o‘zgarishi ham mumkin. Biz boshqa takrorni – nutq emotsiyonalligini oshirish, harakatning, voqeanning davomiyligini ta’kidlash yo‘li bilan o‘quvchining diqqatini tortish maqsadida gap bo‘laklarini takrorlash (sintaktik takror)ni nazarda tutyapmiz. Masalan, Abdulla Qahhor o‘z asarlarda sintaktik takrordan unumli foydalangan va ta’kidlamoqchi bo‘lgan ma’noni shu tariqa ajratib ko‘rsatgan. Uning “Sinchalak” qissasida bunga quyidagicha misollar bor:

Hozirgi Qalandarov Zulfiqorovga biron so‘zi bilan emas, hatto anchayin harakati bilan xayrixohlik bildirsa ham *ish chatoq, juda chatoq bo‘lar edi*.

Hozir buning katta gunoh ekanligi bilindi, juda ham bilindi.

Uncha-muncha odamni yerga *chalpak qilaman. Chalpak*.

- Olaver, olaver, hozir aytib beraman (“Asror bobo”).

G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un kabi yirik so‘z san“atkorlari ham bunday takrorni she’riyatda o‘z o‘rnida qo’llab, she’ming ta’sirchanligini oshirishga erishganlar:

Tong yaqin,  
Tong yaqin,  
Oppoq tong yaqin.  
Bir nafas orom ol,  
Uxla jigarim.  
G‘.G‘ulom  
Fursating yetmaydi doim,  
Hech qachon yetgan emas.  
Mehnating bitmaydi doim,  
Hech qachon bitgan emas.  
E.Vohidov

Misollardan ko‘rinadiki, gapning takrorlanayotgan bo‘laklari yonmay ham, oralarida boshqa so‘zlar bilan ham kelishi va shunga qarab takrorning ma’nosи ham tovlanib turishi mumkin ekan.

“Kursdoshlarimning malomatlaridan qutulish uchun yozaverdim, yozaverdim. Redaksiyadan esa bir xil qolipdagи javob kelaverdi, kelaverdi” (Nusrat Rahmatov). Bu misolda fe’lning shakli ham, bu fe’l orqali ifodalangan kesimning takrorlanishi ham uzoq va takrorlanib davom etgan harakatni ifodalagan. Agar ikkala gapdagi fe’l kesimlarni bittadan qoldirsak, oddiy, jo’n, so‘nik jumlalar tug‘iladi-yu, nutqning ta’sirchanligi, jozibasi yo‘qoladi.

Bu bilan biz takror hamma vaqt ham ijobji, u mazmunni muallif istagancha tushunishni osonlashtiradi, demoqchi emasmiz, o‘rinsiz takror mazmunni siyqalashtirib, nutqiy qashshoqlikka olib kelishi ham mumkin:

Ming bor, ming bor ko‘kardigu,  
Ming bor yana so‘ldik biz.  
Men-ku ming bor tirildim,  
Ming bora o‘ldim yana.  
Ming bor qayta tug‘ilib,  
Mung bor qayta o‘ldingiz.  
S.Barnoyev

Xullas, so‘z tanlashda ham, ularning grammatik munosabatlарини ifodalovchi yordamchi so‘z va qo’shimchalarni tanlashda ham, gap va matn tuzishda ham me’yor, marom, mas’uliyat hissi bilan, did bilan

yondashish, adabiy-madaniy nutq egasi bo'lishning, ona tilimizni e'zozlashning asosiy belgisidir.

### Savol va topshiriqlar:

1. So'z tanlashda sinonimlardan foydalanishning ahamiyatini tushuntiring.
2. Nutqni namunali tuzishda qo'shimchalar va yordamchi so'zlarning rolini misollar bilan tushuntiring.

3. Inversiya nima? U qaysi janrda ko'proq uchraydi? Nutqda inversiyaning o'rmini izohlang.

4. Tilda gap bo'laklari takrorining necha xil ko'rinishi bor?

5. Qo'shimchalar qaysi o'rinda to'g'ri tanlangan:

Minnatlik osh – minnatli osh;

Kallador odam – kallali odam;

Buyumning qiymati – buyumning qimmati.

6. So'zlarning har bir qo'llanishini izohlang:

a) Avom tabib – ofati jon;

Ofatijon jononing bir kulishi barcha tashvishlarimni unuttirdi.

b) Yog' xumchasi tishidan bilinur;

Tilingni tut - tishing sinmasin.

c) Tuyali yerda tut bo'lmas, yumushli yerda – yut;

Tilingni tut.

d) Shoshganning ishi o'ngidan kelmas;

Shoshganning ishi o'ngmas;

Shoshganning ishi o'ngimas.

### NOTIQ MAHORATINING ASOSI TILDAN FOYDALANISHDA

"Notiq" deganda nutq so'zlovchi shaxsni ham, so'zga usta, nutqi o'tkir odamni ham tushuniladi. Nutq so'zlovchilar (notiqlar), afsuski, hamma vaqt ham tinglovchilarning tahsiniga loyiq bo'lavermaydi. Universitet va institut o'qituvchilaridan ayrimlarining darslarida talabalar mudrab o'tirishi sir emas, tinglovchiga o'qilayotgan ma'ruza yangilik bermasa yoki ma'ruzada yangi fikr bo'lsa ham, siyqasi chiqqan "shtamp" nusxa so'z va iboralar oqimida bo'lsa, uning tinglovchiga ta'siri bo'lmaydi, demak, ongiga borib yetmaydi. Shuningdek, yangilik va bilimga boy ma'ruza, va'z yoki intervyu, so'zga chiqishlar haroratsiz, so'nik o'qilganda ham, uning ta'sir kuchi ancha qirqiladi va bu xil nutqqa auditoriya e'tiborni qaratmaydi.

Notiqlik – murakkab faoliyat ekani ko'pchilikka ma'lum. Nutqning (og'zaki nutq, ma'ruza, va'zning) muvaffaqiyati, avvalo, auditoriya bilan, omma bilan mustahkam aloqa o'rnatish va uni nutq tamom bo'lguncha saqlab turishda namoyon bo'ladi. Buning uchun esa nutqning boshlanishidayoq uni asoslash, qo'yilayotgan masalaning muhimligini lo'nda va aniq tushuntirib, kishilarni mavzuning muhimligiga ishontirish lozim. Eshituvchilar hamma vaqt notiqdan yangi gap kutadilar, uning nutqidan o'zlarini qiziqtirgan, tinchlik bermayotgan masalalarga javob izlaydilar. Notiq oz nutqi davomida auditoriya sharoitini hisobga olib, mana shu ehtiyojni qoplashi, tinglovchilar qiziqishini qanoatlantirishi zarur. Bu esa notiqdan mazmunli nutq tuzishni, nutq davomida fikrlarni mantiqan izchil rivojlantirib borishni, qaytarqlar, mavzudan chetga chiqishlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Nutqning mazmunli va ta'sirchan bo'lishi, tinglovchilarga yaxshi singishi notiqning til imkoniyatlari va vositalardan qay darajada foydalanishiga bog'liq. Zero, har qanday fikr ham til vositalari orqali ifodalanadi. Notiqning shu til vositalari va imkoniyatlarini, ularning qo'llanishiga xos xususiyatlarni, ma'naviy tovlanishlarini yaxshi bilishi va his qilishi, oz nutqida ulardan mohirona foydalana bilishi niroyatda muhim. Aksincha, nutqi no'noq odam o'z fikr-mulohazalarini iodalashda qiynaladi, chaynaladi, uning "nutqi" tinglovchilarning ensasini qotiradi. Mana shunday "notiq"lardan birining intervyusidan:

*"Men Andijon teatrida 1930-yilda sahnada "Arshin mol olon" spektaklidan so'ng tug'ilgan ekanman. Otam Sulaymonni o'ynaganlar, mamam Osiyoni. Spektakldan so'ng dard boshlanib, otam ko'chaga chopib chiqib, faeton to'xtatganlar, keyin mamamni bolnitsaga olib borganlar-u, men tug'ilgan ekanman."*

45-yilda Teatralniy institut ochilgan. Urush tamom bo'lgan edi. Gavhar opaning ansamqli bor edi. Institutga podkursga qabul qilishdi. Dom ofitsarlarning shundoq ro'parasida edi.

Repetitsiya paytlarida u to'g'ri-to'g'ri zamechaniyalar berdi. Mashnuqanggi voqealar bor hayotda. "O'g'irlangan umr" spektaklida o'ynaganimda Tamara opa menga kiyish uchun tanketka bergen edilar. Aktyorda, albatta, intellekt bo'lishi kerak".

Hozirgi kun matbuot sahifalaridan quyidagi g'aliz, chalkash nutq namunalariiga ayrim misollar: 1-namuna

Ishqibozlarni o'ylab

UEFA rahbariyati Rossiya hukumati bilan angliyalik ishqibozlarga 21-may kuni o'tkazilajak championlar ligasining finaliga tashrif buyurishlari uchun viza berish tartiblarini yengillashtirishga kelishib oldi.

UEFA vakilining so'zlariga ko'ra, ushbu chora-tadbirning ko'riliishi tufayli Moskvaga finalda qatnashuvchi jamoalarning har birining 23500 nafardan muxlisi kelishini ta'minlaydi.

Championlar ligasining yarim finaliga to'xtalib o'tsak, turnir finaliga birinchi bo'lib "Manchester Yunayed" yo'l oldi. Javob uchrashuvini o'z uylarida o'tkazgan "aizil iblislar" "Barselona"ni 1:0 hisobi bilan mag'lub etdi va Moskvaga chipta buyurtirib go'ydi. Yarim finalning ikkinchi juftligida esa ikki vatandosh klublar – "Chelsi" va "Liverpul" orani ochiq qilishdi... Shu tariqa "Lujniki" stadionidagi finalda "Manchester Yunayed" – "Chelsi" bahsiga guvoh bo'lamiz.

"Mohiyat", 2008-yil, 2-may.

2-namuna

O'zbekiston tadbirkorlari diqqatiga!

"Объединенная Система Моментальных Платежей" Yopiq aksiyadorlik jamiyati Rossiya Birlashgan Hamdo'stlik Mamlakatlaridagi eng ilg'or va katta pul o'tkazish sistemalaridan biri bo'lib, u yangi va amaldagi pul o'tkazish shaxobchalarining daromadlarini yanada ko'paytirishga yangi innovatsion imkoniyatlar taklif etadi. Administratorlar menejer sistemasi esa boshqaruv kalitini boshqarishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

"Tasvir", 2008-yil 19-soni.

3-namuna

...uchrashuvning birinchi bo'limi o'rtalarida "Arbil" hujumchisi H.Husayn tomonidan amalga oshirilgan jarima to'pi "Paxtakor" himoyachilaridan biriga tegib o'z yo'naliшини o'zgartirgan holda I.Nesterov darvozasidan joy oldi. Ikkinci bo'limda futbolchilarimiz o'z muxlislariiga bir-biridan chiroyi gollar "shou"sini taqdim etishdi. Hisob

5.1. Oltinchi to'p ham kiritilishi mumkin edi, ammo A.Geynrix raqib darvozasi tomon belgilangan 11 metrli jarima to'pidan samarali foydalana olmadi.

Bu yog'i endi futbolchilarning o'zlariga bog'liq. Oldinda jamoalarimizni yanada murakkab o'yinlar kutmoqda.

M.Saydivaliyev "Vatanparvar" gaz. 2008-yil, 2-may.

Ayrim nutq va ma'ruzalarda mazmun va shakl uyg'unligi buziladi, ya'ni mazmun salmoqli bo'ladi-yu, lekin ta'sirchanlik yetishmaydi. Nutqning ta'sirchanligini esa ko'p jihatdan obrazlilik vositalari – turli o'xshatishlar, sifatlashlar, maqol va matallar, ko'chma ma'noli o'tkir iboralar (frazelogizmlar), yuklamalar, undovlar ta'minlaydi. Auditoriyani hisobga olgan holda ba'zi qochirimlardan ham foydalanish mumkin. Ayniqsa, humor elementlari, hazil-mutoyiba o'rnida qo'llansa, bunday nutq jonli va ta'sirchan bo'ladi, auditoriyaning diqqat-e'tiborini tortadi, tinglovchilar tomonidan xayriyohlik bilan kutib olinadi.

Nutq savodli tuzilgan bo'lishi ham kerak. So'zlar va boshqa til vositalari rang-barang bo'lsa-yu, lekin jumlalar g'aliz tuzilsa, ya'ni so'z va qo'shimchalar gap tarkibida muvofiq tartibda joylashtirilmassa, u holda ham fikr ravshan ifodalanmay qoladi, notiq chaynalaveradi, bu esa tinglovchilarning qiziqishini so'ndiradi.

Nutq tuzishda (biz bu o'rinda tildagi so'zlardan foydalanish va jumla tuzishni nazarda tutyapmiz) auditoriyaning bilim darajasi, madaniy saviyasi va xarakterini nazarda tutish jiddiy ahamiyatga ega.

Ba'zan oddiygina, jo'n tarzda ifodalanishi mumkin bo'lgan fikr dabdabali, tantanavor tarzda, turli xitoblar, da'vatlar bilan bayon qilinadi. Taniqli adibimiz Abdulla Qahhorning "Nutq" felyetonida bu haqda shunday deyiladi: "Gap shundaki, hozirgi vaqtida tilimizning boyligini, uning qochirqlarini o'rganishga erishgan, soz san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib, kun ko'rib yurgan bir turkum qalam ahlining "faoliyati" natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilning hech qayerda yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra "yaxshi ovqat yedim" deb bo'lmaydi, albatta. "Sifatli ovqatlandim", deb yozish shart! "Papirosh chekadigan kishi gugurtini olib yurishi kerak" deyilsa, to'g'ri bo'ladi. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa notiqni g'urbatning uyasisiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi!"

Odamlar tushunadigan samimiy nutq, dildan chiqadigan va dillarga borib yetadigan so'zlar kerak.

Lekin bu nutqni jo'n tuzish, uni oddiy so'zlashuvga aylantirib yuborish kerak degan ma'noni ham bermaydi. Oddiy so'zlashuv nutqiga yoki shaxsning faqat o'ziga xos bo'lgan turli ortiqcha (parazit) so'zlar, bachkana, haqoratomuz ta'riflar nutqda mutlaqo bo'lmasligi lozim, notiqning nutqi ham mantig'i bilan, ham adabiy-madaniy nutqning yaxshi namunasi sifatida tinglovchilarga huzur bag'ishlashi, etika normalariga mos bo'lishi va kishilarni qanoatlantirishi lozim.

Nutqqa qo'yiladigan talablardan yana biri shuki, notiq qaysi tilda so'zlasa, o'sha tilning boyligini yorqin namoyish qilishi, o'zbek tilida gapirganda rus tilidan o'zbek adabiy tiliga hali o'zlashmagan so'z va iboralarni aralashtirmasligi lozim. Holbuki, ayrim notiqlar va so'z oluvchilar o'z nutqlarida, "otchot", "priyom", "dogovor" kabi oddiy so'zlashuvga xos so'z va iboralarni ko'plab qo'llaydilar. Bular nutqning ko'rksamligiga putur yetkazadi, odamlarning g'ashiga tegadi.

Nutq hamma tomonlama yaxshi tuzilgan, deylik. Uni auditoriyada o'qish, tinglovchilarga yetkazish ham notiqdan katta mahoratni, aktyorlik san'atini talab qiladi. So'zlarni aniq va ravshan talaffuz qilish, urg'ularni joy-joyiga qo'yish, nutqning o'qilish maromiga, kerakli o'tinlarda to'xtamlarga, tovush ohangdorligiga e'tibor berish ham katta ahamiyatga ega. Bular nutqning mazmunini bo'rttirib, ta'sirchanligini oshiradi. Til imkoniyatlardan mahorat bilan foydalangan notiq esa hamma vaqt auditoriyaning diqqat markazida bo'ladi, uning so'zлari tinglovchilarda fikr uyg'otadi, yangi g'oyalarning tug'ilishiga turtki bo'ladi.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Nutqqa no'noq odamlarni uchratganmisiz? Taassurotlaringizdan so'zlab bering.
2. Matbuot sahifalaridagi g'aliz va chalkash nutq namunalaridan ko'rsating.
3. O'zingiz biron bir mavzuda yozma yoki og'zaki nutq tuzib, ikkala nusxasini qiyoslang. Yozma nutq tuzishda nimalarga e'tibor berasiz? Og'zaki so'zlashuv nutqi nusxasida esa qanday tomonlari bor?
4. Maqol va matallar yozma nutq mahsulimi yoki og'zaki nutq mahsulimi? Hikmatlar-chi?
5. Sizga ta'lrim bergan va hozir ta'lrim berayotgan ustozlaringiz orasida ko'rkan va bilimli nutqini ko'rkan yuz ifodalari hamda xatti-harakatlar bilan qo'shib namoyish qiluvchilar bormi? Ularning sizga yoquvchi tomonlarini so'zlab bering.

#### Foydalilanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Кайковус. "Кобуснома" – Т., "Мерос" нашриёти, 1992.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. "Қутадғу билиг" – Т., 1971.
3. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар – Т., F.Фулом нашриёти, 1988.
4. Абдулла Қаххор ҳикматлари – Т."Ўзбекистон", 1990.
5. Алибек Рустамов. Сўз хусусида сўз – Т., "Ёш гвардия", 1987.
6. Бегматов Э. Адабий талаффуз маданияти – Т., 1982.
7. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти – Т., 1983.
8. Бегматов Э. Ўзбек нутки маданияти очерклари – Т., 1988.
9. Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати – Т., "Ўқитувчи", 1984.
10. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида – Т., 1972.
11. Карнеги Д. Как завоевывать друзей и оказывать влияние на людей – Самара, 1997.
12. Карнеги Д. Как выработать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично – Самара, 1997.
13. Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш – Т., 1990.
14. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати – Т., "Ўқитувчи", 1978.
15. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати – Т., "Ўқитувчи", 1980.
16. Турдиев Б. Ёзма нуткни ўстириш юзасидан практикум – Т., 1980.
17. Турсунпўлатов М. Ўзбек сўзлашув нутки лексикаси – Т., 1988.
18. Умурқулов Б. Сўз танлаш санъати - Т., 1985.
19. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилининг лексик нормалари. Нутқ маданиятига оид масалалар – Т., 1973.
20. Ўзбек халқ мақоллари, 2005.
21. Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари – Т., "Ўқитувчи", 1993.
22. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати – Т., "Ўқитувчи", 1974.
23. Аъламова М. Нутқда акс этар бир олам бойлик - Т., 1988.

## Mundarija

Kirish .....	3
Notiqlik – san’at .....	4
Nutq uning shakl va turlari .....	7
O‘zbek adabiy tili. Adabiy til me’yorlari va nutq madaniyati .....	27
Nutq ustida ishlash.....	39
Notiq mahoratining asosi tildan foydalanishda .....	79
Foydalilanigan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati .....	53

M.A ’lamova, Sh.Ziyamuhamedova

## NUTQDA AKS ETAR BIR OLAM BOYLIK...

*Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma*

Muharrir: *G.G ‘ulomova.*

Texnik muharrir: *A.Boymamatov.*

Komp’uterda sahifalovchi: *T.Ashirov.*

Bosishga ruxsat etildi: 02.07.2009.

Hajmi: 3,4 b.t. Adadi: 150. Buyurtma: № 92.

TDYI “Tezkor nashr markazi”da chop etildi.

Toshkent shahri, Sayilgoh 35.

